

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI**

“Xalqaro turizm va turizm servisi” kafedrası

И.С.Тухлиев

**MAXSUS FANLARNI O‘QITISH
METODIKASI**

(Ma‘ruzalar kursi)

SAMARQAND - 2017

1-Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari
2. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari
3. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari

1.Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1995 yil fevral oyidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma’ruzasida “Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqoralar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi” deb ta’kidlab o‘tganlar.

Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda bo‘lib o‘tgan IX sessiyasida muhokama etilib, qabul qilingan, hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko‘tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga daxldor bo‘lgan qonunlar - «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni izchil amalga oshirish jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy modeli shakllantirildi. **Uning asosiy tarkibiy kislmlari kuyidagilardan iboratdir:**

Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning istemolchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat vya jamiyat - ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta’lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish - kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jixatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Mazkur milliy modelning asosiy elementlaridan biri bo‘lgan uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi

to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini joriy etishdan iboratdir.

Oliy ta‘lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Bakalavriat – ta‘lim yo‘nalishi buyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, o‘qish muddati kamida turt yil bo‘lgan tayanch oliy ta‘limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb buyicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiklangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik buyicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta‘limdir.

Magistrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan “magistr” akademik darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiklangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi. Shuningdek fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumotni shartnoma asosida olishga haqli ekanligi belgilab berilgan.


2.Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunining 3-moddasida ta‘lim sohasidagi daalat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e‘lon qilingan.

Ta‘lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari qo‘yidagilardan iborat:

- ta‘lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi;
- ta‘limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining majburiyligi;
- o‘rta maxsus, kasb-xunar ta‘limining yo‘nalishi: akademik litsey yoki kasb-xunar kollejida o‘qitishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta‘lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
- davlat ta‘lim standartlari doirasida ta‘lim olishning hamma uchun ochikligi;
- ta‘lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo‘lishni va iste‘dodni rag‘batlantirish;
- ta‘lim tizimida davlat va jamoat boshkaruvini uyg‘unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasidagi uzluksiz ta'lim tizimi



3. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodda intellektual kobilyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bundan kelib chiqqan holda Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi bo'lajak mutaxassislarining ixtisoslik fanlaridan ta'lim berish metodikasi, oliy ta'lim tizimida o'qitish shakllari hamda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Magistrlarga bu fanni o'rgatishdan asosiy maqsad ularning iqtisodiy yunalishdagi oliy, o'rta maxsus bilim yurtlarida pedagog sifatida faoliyat ko'rsatishiga zamin tayyorlash hamda pedagogik faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Ma'lumki, iqtisodiy fanlar bir tomondan umumiy jihatlarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan esa o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shubxasiz, bu iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasida ham o'z aksini topadi.

Fan dasturida barcha iqtisodiy fanlarni o'rganish uchun umumiy bo'lgan qonun-qoidalar usullar hamda o'rganilayotgan maxsus iqtisodiy fanlarning xususiyatidan kelib chiqib, qo'llaniladigan usullar hamda usullarni shu fanlarga tadbiiq etish o'rganiladi. Fan dasturi hozirgi paytda qo'llanilayotgan eng ilg'or usullarni qo'llashni iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi rivojlangan mamlakatlarning tajribasini ham hisobga olgan holda tuzilgan.

Magistratura ta'lim yo'nalishlari uchun "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"ni fani buyicha talaba kuyidagilarni bilishi zarur:

- «Xalqaro turizm operatorlik xizmatlari» mutaxassisligi buyicha o'qitiladigan fanlarning asosiy mavzularini va ularning mohiyatini;
- mutaxassislik fanlarining boshqa fanlar bilan bog'lig'ini;
- oliy o'quv yurtlarida Maxsus fanlarni o'qitish xususiyatlarini;
- o'qitish jarayoni va uning boskichlarini;
- ma'ruza darslariga tayyorlanish, ularni sifatli o'tkazish asoslarini;
- seminar (amaliy) darslarga tayyorlanish va ularni sifatli olib borishni;
- mutaxassislik fanlar buyicha ish uyinlari olib borish va boshka zamonaviy uslublarda darslar olib borishni;
- o'qitish va tarbiyalanishning uzviy bog'lig'ini ta'minlashni;
- muammoli o'qitish, uning usullarini anglay olishni;
- talabalarning (magistrantlarning) bilimni aniklash shakllarini;
- o'qitish jarayonida yangi texnika va zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishni.

Magistr-o'qituvchilarda quyidagi o'quv va ko'nikmalar shakllanishi lozim bo'ladi:

- dars jarayonining borishini nazorat qila bilish;
- auditoriya bilan uzviy alokada bo'lib, uni boshkarish;
- talaba (magistrant)larning bilimni nisbiylikda taxdil kila bilish;
- ilmiy iqtisodiy adabiyotlarni mustakil o'rganishi va boshkalar.

Mazkur fan Maxsus fanlarni o'qitish usullariga bag'ishlangan bo'lib, u magistrant talabalarga tanlangan soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga oid chuqur nazariy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Shu bilan birgalikda fanning mazmunida o'qitish usullariga oid umumiy ma'lumotlar, ta'lim jarayonining tashkiliy-pedagogik sharoitlariga ham e'tibor qaratilgan.

Magistr o'zining kasbiy faoliyatida ilmiy tajriba va ishlab chikarishni boshqarishga oid bilim va ko'nikmalarni to'laqonli o'zlashtirgan bo'lishi bilan birga ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borish kobiliyatlariga ham ega bo'lishi lozim.

Magistr ilmiy-pedagogik yo'nalishda ish olib borishi uchun pedagogika, psixologiya fanlarini va Maxsus fanlarni o'qitish metodikasini bilishi zarur.

Magistr ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini, o'qituvchi kasbiga oid pedagogik va kommunikativ kobiliyatlarni, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratni, ishchi o'quv dasturi va o'quv rejaları tuzishni, fan bo'yicha talabalar bilimni baholashning reyting tizimini bilishi lozim.

Mutassilik fanlarini o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirgan magistr:

- o'qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta'lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma'ruza o'qishni. amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni, talabalar mustaqil bilim olishlarini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni, ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanini o'rganish jarayonida muammoli ma'ruzalar o'tkazish, interfaol usullar, pedagogik strategiyalardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Tayanch so'z va iboralir: kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kadrlar tayyorlash milliy modeli, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, uzluksiz ta'lim, bakalavriat, magistratura, o'qitish metodikasi, o'qitish shakllari.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmun-mohiyati nimadan iborat?

2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining komponentlari nimadan iborat?

3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini sanab bering.

4. Oliy ta'limni amalga oshirish bosqichlari nimalardan iborat?

5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat?

6. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirgan talaba qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?

2-Mavzu:Maxsus fanlarni o‘qitishda ta’lim jarayoning asosiy usullari

Reja:

1. Ta’lim jarayoning usullari
2. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar
3. Darsning asosiy tarkibiy elementlari

1. Ta’lim jarayoning usullari

Ta’lim jarayoning umumiy shakllari: jamoaviy, guruh bo‘lib, yakka tartibda (frontal, zveno, individual).

Ta’lim jarayoning usullari:

- *an’anaviy usullar* (og‘zaki, amaliy, ko‘rgazmali, kitob bilan ishlash, video va audio usullar);
- *aniq maqsadli usullar* (bilimlarni egallash; malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish; bilimlarni qo‘llash; ijodiy faoliyat; mustahkamlash; bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish);
- *idrok etish-bilish faoliyati harakteriga ko‘ra usullar* (tushuntirish – illyustrativ (axborot – reseptiv); reproduktiv; muammoni bayon qilish; qisman ijodiy (yevristik); tadqiqiy);
- *didaktik maqsadli yo‘naltirilgan usullar* (ilk bor bilimlarni o‘zlash-tirish; egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish).

2. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar

Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar usullari: «Ma’ruza», «Tanishuv», «Tushunchalar tahlili», «Zinama-zina», «Charxpalak», «Bumerang», «Rezyume», «Muammo», «Labirint», «Blits-so‘rov», «Fikr, sabab, misol, umumlashtirish (FSMU)», «Skarabey», «Yelpig‘ich», «Muloqot», «Yozma bahs», «Kuzatish, bahslashish, shontirish (KBI)», «Munosabat», «Tashviqot guruhi», «Amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar», «Ssenariy (sahna)», «Ishontirish maktabi», «Kelishuv va ziddiyat», «Uchlik - samarali, axloqiy, nazokatli (SAN)», «Tushuntiruvchi, talqin qiluvchi (germenevtik)», «Aniq vaziyat, hodisa (keystadi)», «Haqiqiy vaziyatlarni o‘yin qilib ko‘rish (simulyatsiya)», «Taqdimot», «Olmos», «Jadvallar», «Kungaboqar», «3x4», «6x6x6», «Muzyorar», «Yumaloqlangan qor», «Fidbek», «Breynrayting», «Breynstorming», «Fikrlar hujumi», «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Insert», « Klaster», «Bahs-munozara», «Davra suhbatlari», «Davra stoli», «Kim ko‘p, kim tezroq», «Kim chaqqon, kim topqir», «Kuchsiz halqa», «Loyiha», «To‘rt pog‘onali», «So‘qrot

suhbati», «Tanqid qilishni o‘rganing», «Iyerarxiya», «Boshqaruv», «Murabbiy va jamoa» va hokazo.

Ta’lim jarayoning vositalari: *matnli vositalar* (ma’ruzalar kursi ma’ruzalar tuplami, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy qo‘llanma, darslik; elektron darsliklar va tarqatma materiallar; imtihon va nazorat variantlari; testlar va hokazo);

- *tasvirli vositalar* (fotosuratlar; eskiz; chizma; sxema; ramziy tasvir; reja jadvallar; simvollar; diagrammalar; grafiklar; slaydlar va hokazo);

- *audio-video vositalar* (videofilmlar; kompakt disklar; audio va video kassetalar; tasvir va matnni yozish va saqlash; doskalar (oq doska, flipchart doska, pinbord doska); videomagnitafon; kamera; kompyuter va hokazo);

- *modelli vositalar* (asbob-uskunalar; stanoklar; yarim tayyor va tayyor mahsulotlar).

Didaktik tamoyillar tizimi: ilmiylik, qulaylik, izchillik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi, onglilik, faollik va mustaqillik, ko‘rgazmalilik, mustahkamlik, guruh qilib o‘qitish hamda unda individual yondashishni qo‘shib olib borish, o‘qitishning tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi harakteri, o‘qitishning kasbiy yo‘naltirilganligi.

Ta’limda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari: dars, fan, texnika to‘garaklari, o‘quvchilar ilmiy uyushmalari, sayohatlar.

Tarbiya usullari: ishontirish; ijobiy namuna; mashq qilish; talablar; xulqi ustidan nazorat; faoliyatning boshqa ko‘rinishlariga o‘tish.

3. Darsning asosiy tarkibiy elementlari

Dars turlari:

- *an’anaviy* (yoki standart, uning tuzilishi: so‘rash, tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish),

- *zamonaviy* (uning tuzilishi: didaktik (asosiy), mantiqiy - psixologik, motivlangan va uslubiy);

- *noan’anaviy* (yoki nostandart), uning turlari:

- muammoli;

- texnologik;

- virtual;

- musobaqa va o‘yin (tanlov, turnir, estafeta, duyel, KVN, tadbirli, rolli (rassom, loyihachi, bezatuvchi, muharrir, rejisser va hokazo), krossvord, viktorina);

- ijtimoiy amaliyotga ma’lum bo‘lmagan ish shakllari, janrlari va uslublariga asoslangan (tadqiq etish, ixtirochilik, birlamchi manbalar tahlili, intervyu, reportaj, taqriz);

- muloqotning ogʻzaki shaklini eslatuvchi (matbuot anjumani, auksion, benefis, miting, vaqti chegaralangan munozara, panorama, telekoʻprik, bildirgi, muloqot, «jonli gazeta», ogʻzaki jurnal);

- oʻquv materialini noanʻanaviy tashkil etishga asoslangan (donolik, ochiq tan olish, «dublyor harakat boshlaydi»);

- hayoliylashgan (ertak, sovgʻa, XXI asr darslari);

- muassasa va tashkilotlar faoliyatiga oʻxshash asoslangan (sud, tergov, tribunal, patent byurosi, ilmiy kengash, muharrirlik kengashi va hokazo).

Dars koʻrinishlari: maʼruza, seminar va amaliy mashgʻulotlar, laboratoriya mashgʻulotlari, oʻquv anjumanlari, oʻquv-seminar, suhbat, kinodars, kompyuter mashgʻulotlari, mashqlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, oʻquv ishlab chiqarish va pedagogik amaliyoti, kurs, loyiha va bitiruv malakaviy ishlari, talabalarning mustaqil tahsili va hokazo.

Darsning asosiy tarkibiy elementlari: tashkiliy qism; uyga berilgan yozma vazifalarni tekshirish; talabalar bilimini ogʻzaki tekshirish (yoki soʻrash); yangi materiallarni tushuntirish; yangi materiallarni mustahkamlash; uyga vazifa berish; darsni uyushqoqlik bilan yakunlash.

Dars tahlilining asosiy tarkibiy qismlari: oʻqituvchining darsga tayyorgarlik darajasi, darsning maqsad va vazifalari, tashkiliy ishlar, didaktik, uslubiy, usulologik, psixologik, pedagogik, oʻquvchilar bilan hamkorlikda ishlash va yakuniy tahlillar.

Darsga kirgan oʻqituvchining qoʻlida boʻlishi lozim: guruh jurnali, fan oʻquv dasturi, kalendar-mavzu rejasi, dars texnologik haritasi, oʻquv-uslubiy materiallar.

Oʻqituvchining darsga kirishdan oldin oʻziga qoʻyadigan savoli: nega, nimani va qanday oʻqitaman?

Abu Ali Ibn Sinoning boʻlajak oʻqituvchilarga qoʻygan talablari:

- talaba (oʻquvchi) lar bilan muomalada bosiq va jiddiy boʻling;
- berilayotgan bilimni talaba (oʻquvchi) lar qanday oʻzlashtirib olayotganligiga alohida eʼtibor bering;

- taʼlimda turli uslub va shakllardan foydalaning;

- talaba (oʻquvchi) ning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini biling;

- talaba (oʻquvchi) larni fanga qiziqтира biling;

- talaba (oʻquvchi) larga uzatilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bering;

- bilimlarni talaba (oʻquvchi) larga tushunarli hamda ularning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda bering;

- har bir soʻzning talaba (oʻquvchi) lar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishing.

3-Mavzu: Auditoriyada ma'ruza o'qitilishining ilg'or usullari

Reja:

1. O'quv materialini og'zaki bayon etishning asosiy usullari
2. Ma'ruza o'qish usuli, uning afzalliklari va kamchiliklari
3. Ma'ruzaning tuzilishi va muammoli ma'ruza

1.O'quv materialini og'zaki bayon etishning asosiy usullari

O'quvchilarga o'quv materialini bildirishning asosiy usullaridan biri o'z ichiga: so'zlab berish, tushuntirish, ma'ruzani og'zaki bayon etishni qamrab oladi.

Bularning barchasida ta'lim berishning faqat bir vositasidan ya'ni o'qituvchi so'zidan foydalaniladi. So'zlab berish o'quv materialini xikoya tarzida bayon etishni ko'zda tutadi. Bu usulda o'quv materialini, asosan, tavsif qo'rinishida bo'lib, mantiqiy izchilligi bilan farq kiladigan xollarda ko'llaniladi.

Tushuntirish. O'quv materialini og'zaki bayon etishni kuzda tutadi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi solishtirish, takkoslash, deduksiya, induksiya, asoslash, konuniyatlar chikarish va shu kabilardan foydalaniladi. Tushuntirish, asosan, xususiy va anik ma'lumotlarni bildirishda qo'llaniladi.

Ma'ruza, so'zlab berish va tushuntirishdan farqli ularok, ancha anik tuzilgan bo'ladi. Ma'ruzalar, odatda o'quv dasturining yirikrok, prinsipial muxit masalalari yuzasidan o'qiladi. Ma'ruzada o'quv materialini yaxlit va izchillik bilan bayon etiladi, o'zaro bog'langan tushunchalar, konuniyatlar tizimi ochib beriladi, kursning turli mavzulari orasida ichki bog'lanishlar o'rnatiladi.

2.Ma'ruza o'qish usuli, uning afzalliklari va kamchiliklari

Ma'ruza so'zlab berishga qaraganda uzoq davom etadi va o'quvchilarning yozib borishi ko'zda tutiladi.

Usulning usul nuktai nazaridan olganda so'zlab berish, tushuntirish hamda ma'ruza juda kup umumiylikka ega, shu sababli umuman og'zaki bayon metodikasini ko'rib chiqamiz va har qaysi usulning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etamiz.

Og'zaki bayon etishga tayyorgarlik ko'rishda shuni nazarda tutish zarurki, o'quvchilar yangi materialni, odatda, u tegishli mantiqiy izchillikda kism – porsiyalab bayon etilgan takdirdagina ancha samarali o'zlashtiradilar. O'quv materialining har bir qismi nisbatan tugal mazmunga ega bo'lishi kerak. Bayonni rejalashtirishda materialni asosiy masalalar mumkin kadar kam bo'ladigan tarzda tuzishga harakat kilish zarur. Tajribadan ma'lumki, o'quvchilar 2-3 ta asosiy fikrni oson, to'rt yoki beshta asosiy fikrni qiyinrok idrok etadilar, agar asosiy fikrlar 8-10 ta bo'lsa o'quvchilar ancha qiynaladi.

Bayon etishda eng qiyini boshlangich kismdir, shuning uchun o'kituvchi uni juda puxta mashq qilishi zarur. Hamma vaqt ma'lum va aniqroq materialdan boshlab, sekin asta yangi materialga o'tishi lozim. O'qituvchilar ish tajribasida yangi fakt xodisa, konuniyat va voqealarni tushuntirishni tuzishning ikki usuli: induktiv hamda deduktiv usullari qo'llaniladi.

Induktiv usulda o'kituvchi xususiyydan umumiyga, deduktiv usulda esa, aksincha, umumiydan xususiyyga boradi. Bir materialning o'zini ko'pincha ikki usul bilan ham berish mumkin.

Deduktiv usulda bayon etishga vaqt ancha kam sarflanadi, ammo bu usulni qo'llash uchun o'quvchilarda dastlabki bilimlar va abstrakt fikrlash borasida ma'lum tajriba bo'lishi zarur.

Bayon etishning induktiv yoki deduktiv usulining qo'llanilishi o'rganiladigan materialning mazmuniga bog'lik. Xikoya harakteridagi materialni induktiv asoslashlar ko'p bo'lgan material ko'pincha deduktiv usulda bayon etiladi.

Shuni ta'kidlab utish zarurki, tushuntirishning induktiv va deduktiv usullari «sof» xolda kam qo'llaniladi. Odatda, o'kituvchilar o'kuv materialini bayon etishda, o'rganiladigan masalalarning murakkabligi va muximligiga qarab bu usullardan kompleks tarzda foydalaniladi.

Bayon etishning goyaviy – siyosiy yunalganligi nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Darsda ta'lim masalalarigina emas, balki tarbiya masalalar ham hal kilinadi.

O'kuv materiallarini qism – porsiyalab bayon etish tavsiya kilinadi. Bunda fikrlar fikrga, qismdan kismga mantikian o'tish darsdan ko'zlangan asosiy maksadni o'kuvchilar esiga tushirish, materialning bayon etilgan har bir kismiga yakun yasash zarur. Bu shartlarga amal kilish bayon etishning mantikiyiligini oshiradi. Bayon etish mantiqi o'quvchilarga tushunarli bo'lishga harakat kilishi lozim

Bayonning tushunarli bo'lishini oshirish uchun: aniq bo'lishi lozim, chunki umumiy muloxazalar, odatda, qiyinrok o'zlashtiriladi; zarurat bo'lmasa, o'kuvchilarga tushunarsiz terminlardan foydalanmaslik kerak; jummalarni imkoni boricha kiska tuzish lozim; rakamli materialni ehtiyojsiz ishlatavermaslik zarur.

Bayon etish vaqtida o'qituvchi takkoslashda foydalansa, o'quvchilar materialni yaxshirok tushunadi. Muvaffaqiyatli bayon etishning eng muxim sharti o'kituvchi bayon etayotgan o'quv materialini idrok etish va tushunib olish jarayonida o'kuvchilar e'tiborining turg'un hamda fikrlash faoliyatining ilg'or bo'lishidir.

Ilg'or pedagoglar o'kuvchilar e'tiborini jalb qilib turish hamda fikrlash faoliyatini ilg'orlashtirishning har hil usullari va usulik usullaridan foydalanadilar; bu usullarning samaradorligi har bir yarim holda materialning mazmuniga, guruxning jamoasi hamda tayyorgarligiga, darsda foydalaniladigan jihozlarga, o'kituvchining individual fazilatlar va ish tajribasiga bog'lik bo'ladi. Yaxshi pedagoglar tajribasini jamlab, eng harakterli usulik usullarni ko'rsatib utish mumkin.

Avvalo, soʻzni koʻrsatma qoʻllanmalar, tajribalar, mehnat usullarini namoyish qilish, daftarlardagi yozuvlar, rasm chizish, sxema, grafik hamda jadvallar tuzish, diafilmlar namoyish qilish, magnitofonga yozib olganlarni eshittirish va shunga oʻxshashlar bilan uygunlashtirish zarurligini koʻrsatib utish lozim. Uygunlashtirish bamaʼni boʻlganda, tabiiyki, oʻkuvchilarni faollashtiradi, material yaxshi oʻzlashtiriladi, chunki bu xolda idrok etish jarayonida oʻquvchilarning bir necha xil sezish organlari ishtirok etadi.

Oʻkuv materialini bayon etishga muayyan vakt ajratilishi sababli oʻqituvchi darsda muljallaganlarning hammasini bayon etishga ulgurish uchun harakat qilishi kerak. Buning uchun oʻqituvchi:

- darsni oʻz vaqtida boshlashi;
- darsga tayyorlanish vaqtida uning ayrim bosqichlari uchun ketadigan vakti, agar zarur bulsa, ayrim asosiy masalalarga ketadigan vaqtni taxminan belgilab olishi va dars jarayonida ana shu reglamentga rioya qilishi;
- oʻkuvchilardan qoʻyilgan savollarga aniq va qisqa javob kaytarishni talab etishi;
- shaxsan oʻzi uchun qiziq boʻlgan masalalarni ortik darajada batavsil va uzoq vaqt bayon etmasligi lozim, aks xolda ahamiyati kam boʻlmagan boshka masalalarni bayon etishga vakt yetishmay koladi;
- dars rejasi va konspektidan okilona foydalanishi, lekin ularga bogʻlanib kolmasligi, fakat vaqti - vaqti bilan uzini tekshirish maksadida ularga karab olishi zarur.

Har kandy materialni bayon etish soʻngida hamisha yakun yasash kerak. Ogʻzaki bayonning yakuniy kismi aytilganlarni umumlashtirish va yakun yasash uchun zarur. Bayonning xotima qismida bayon etilgan materialning asosiy joylarini yana bir bor aytib oʻtish, eng muxim joylariga oʻquvchilar eʼtiborini qoʻshimcha ravishda qaratish, asosiy xulosani takrorlash kerak. Oʻquv materialini oʻquvchilarga muvofakkiyatli yetkazish uchun oʻqituvchi bayon etish metodikasi bilan bir qatorda nutq texnikasini ham yaxshi egallagan boʻlishi kerak. Nutq texnikasi, koʻpchilik xollarda tabiat inʼomi boʻlmay, balki oʻz ustida tinmay ishlash natijasidir. Oʻqituvchi oʻquv materialini har xil tarzda bayon etib, bunda ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. Oʻqituvchi mukammal biladigan, oʻkuvchilarning chuqur va puxta bilim olishlariga imkon beradigan usulikagina yaxshi boʻladi. Shu munosabat bilan nutq texnikasi yuzasidan har bir oʻqituvchiga bir xil darajada va istagan xolda yarayveradigan usulik maslaxat berish kiyin.

Bu borada inglis olimi Artur Uordning bergan fikri har qanday oʻqituvchiga ham toʻgʻri kelishi mumkin:

Oʻrta oʻqituvchi bayon etadi, Yaxshi oʻqituvchi tushuntiradi, Mashhur oʻqituvchi namoyish etadi, Buyuk oʻqituvchi esa ruhlantiradi.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism - 3 daqiqa. 2. Asosiy bilimlarning ahamiyatini oshirish- 20 daqiqa. 3. Talabalar bilim olishining sabablari - 7 daqiqa. 4. Dars mavzusining, maqsadi va topshiriqlarini maʼlum qilish - 5 daqiqa. 5. Tushunchalarni umumlashtirish va tizimlash - 25 daqiqa (savollar qoʻyish bilan) 6.

Umumiy qonuniyatlarni belgilash - 20 daqiqa. 7. Darsni yakunlash - 5 daqiqa. 8. Uy vazifasi - 5 daqiqa.

Tayanch soʻzlar: Pedagogning nutqi va soʻzi, ogʻzaki bayon etishning asosiy usullari, soʻzlab berish, tushuntirish, maʼruza qilish, induktiv hamda diduktiv usullari, bayon soʻngida yakun yasash, nutk texnikasi.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:


1. Auditoriyada maʼruzachining vazifasi nimadan iborat ?
2. Oʻquv materialini ogʻzaki bayon etishning asosiy usullari nimalardan iborat?
3. Maʼruza oʻqish usuli, uning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat ?
4. Maʼruzaning tuzilishi nimadan iborat ?
5. Muammoli maʼruzani tayyorlashda nimaga eʼtibor berish lozim?

4-Mavzu:Maʼruza bilan chiqish usullari

Reja:

1. Maʼruzada axborotlarni taqdim etish usullari
2. Asosiy bayon jarayonida tinglovchilarni qiziqtirish yoʻllari
3. Taqdimotni oʻtkazish shakllari


Ilmiy axborot bilan soʻzga chiqishga tayyorgarlikning protsessual tuzilmasi




Ma'ruzada axborotlarni taqdim etish usullarini tanlash bo'yicha tavsiyalar


1. Ma'ruzani nimadan boshlash kerak?

Quyidagi usullar bilan e'tiborni qaratish mumkin:





Ma'ruza ilmiy maqolaga to'la muvofiq bo'lishi ham mumkin. Biroq og'zaki nutqning afzalligi shundaki, bunda nutqni turli xil qilish, uni ancha jonliroq chiqarish, ilmiy bayon qat'iyligidan chekinish ham mumkin. Ma'ruza muayyan «ekspromt»ga yo'l qo'yadi, bu bilan tinglovchilar e'tiborini tortadi va nutqni esda qoladigan qiladi.

 *Shuni esdan chiqarmangki, ma'ruzaning o'ziga xos boshlanishidan keyin mavzu va uning dolzarbligini asoslash, shuningdek ilmiy qoida - tezis aytilishi kerak bo'ladi!*



- o'zgacha faktlarni keltirish;
- hamma tinglovchilarga tegishli narsa haqida gapirish;
- aniq va belgili hikoya qilish;
- obrazli qiyoslashlar, solishtirishlarni qo'llanish.

 *Keltiriladigan obrazlar, qiyoslashlar, solishtirishlarning o'rinli bo'lishi va ulardan foydalanish me'yori haqida eslab turing!*



Rezyume chiqarish bu yakun yasashdir. Rezyume qiluvchi ibora – bu notiqning «yopiq» tusdagi nutqi, uning bosh g‘oyasi bo‘ladi.



Rezyumedagi «klisheLashtirilgan» iboralar va so‘z birikmalari:

- «*Shunday qilib, ...*»
- «*Xullas, ta’kidlash mumkinki...*»
- «*Binobarin, asosiy g‘oya quyidagilardan iborat ...*»
- «*Aytib o‘tilganlarga yakun yasaymiz...*»

Nutqdagi tipik xatolar:

- 1) *Asosiy fikrning idrok etilishini qiyinlashtiradigan xorijiy atamalar va tushunchalarni suiiste’mol qilish.*
- 2) *Parazit-so‘zlar: «mana», «demak», «misol uchun» kabilarning ishlatilishi;*
- 3) *Ovozning juda balandligi: tinglovchilar 8–10 minutdan keyin bunday nutqni tinglamay qo‘yishadi.*
- 4) *Tarkibidagi so‘zlar 14-15 dan oshadigan murakkab gaplarni ishlatish: bunday iboralar idrok qilinmaydi, grammatik konstruksiya murakkabligi sababli ma’no uzoqlashadi.*

Mustaqil ishlash uchun vazifa

Guruhda o‘qituvchi bergan har bir magistrning kundalik rejasi bo‘yicha olib boradigan fani bo‘yicha mavzuga bag‘ishlangan 10-15 minutlik ma’ruzali (2-3 tadan) chiqishlar o‘tkazing.

1. Ma’ruzalar paytida har bir notiqni quyidagi jadval bo‘yicha baholang.
2. Har bir ma’ruzadan keyin jadvalning har bir bandi bo‘yicha muhokama o‘tkazing. Ma’ruzachilarga umumiy baho bering.
3. Ular uchun jadvalning qoniqarsiz baho qo‘yilgan bandlari bo‘yicha tavsiyalar tayyorlang.

Ma'ruzachilarni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari	Baholash mezonlari		
	«ha» (2 ball)	«qisman» (1 ball)	«yo'q» (0 ball)
<i>Nutq mavzui va maqsadi:</i>			
1. Ma'ruza mavzui aniqmi?			
2. Maqsad aniq ifodalaganmi?			
<i>Mazmuni:</i>			
1. Qiziqarliimi?			
2. Mantiqiy jihatdan aniqmi?			
3. Ishonarliimi?			
4. Axborot yangimi?			
<i>Nutq va til:</i>			
1. Ikki xil ma'noli so'zlar yo'qmi?			
2. Gaplar qisqami?			
3. Matnda mujmal konstruksiyalar yo'qmi?			
4. Ko'p so'zlilik yo'qmi?			
5. Nutqda uni idrok etishni qiyinlashtiradigan xatolar yo'qmi?			
<i>Tashqi ko'rinish, imo-ishoralar, o'zini tutish:</i>			
1. Bemalol va ishonch bilan o'zini tutdimi?			
2. Nutq hammaga qaratilganmi?			
3. Qatnashuvchilarga qaraydimi?			
4. Erkinsizlik bo'lmadimi?			
5. Imo-ishoralar o'rinlimi?			
Boshqa mezonlar (qo'shish mumkin)			
1. Auditoriyani jalb qila oldimi ?			
2. Parazit-so'zlar ishlatdimi ?			

Ma'ruzani yozishda Sizda avvalo nima qiyinchilik tug'dirishini belgilab oling:

- kirish;
- asosiy qism;

- xulosa?

Siz bunday qiyinchiliklar sababini tushuntirib bera olasizmi?

TAQDIMOT (AXBOROT)

Taqdimot – o‘quv (ilmiy) ish yakunlari haqidagi og‘zaki axborot berish

Taqdimotni o‘tkazish shakllari:

- Interaktiv dialog (konsalting firmasi – masalan, kompaniya vakillari).
- Guruhning barcha ishtirokchilari so‘zga chiqadilar.
- Guruh yetakchisi so‘zga chiqadi.
-



Muvaffaqiyatli ma’ruza va taqdimot sirlari

- Hamisha so‘zlayotgan gapingizga ishonchingiz komil bo‘lsin.
- Aniq, lo‘nda qilib gapiring.
- Fikrni tugallangan iboralar bilan bayon qiling, muhim joylarini ta’kidlab gapiring.
- Bir xilda va sekin gapirmang, lekin juda baland ham so‘zlamang.
- Xushmuomala va e’tiborli bo‘ling, agressiv bo‘lmang, vazminlik namoyon qiling.
- Hamisha gapni tabassum bilan boshlab, tabassum bilan tugating, lekin hadeb iljayavermang.
- «Ehtimol», «Kim ham biladi deysiz?», «Balki.....» kabi iboralarni ishlatmang. Bunday iboralar nutqingizga ishonchsizlik bag‘ishlaydi.
- Tinglovchilar bilan aloqani yo‘qotmang – ularga tez-tez qarab turing (har bir ishtirokchiga 3 sek. dan).
- Og‘irligingizni bu oyog‘ingizdan narigi oyog‘ingizga tashlayvermang, qo‘lingizni orqangizda ushlab turmang, stol, minbarga suyanib olmang, keskin imo-ishoralar qilavermang, qo‘lingizni, markerni hadeb siltayvermang, yelpig‘ich, qog‘ozlarni silkitavermang.
- Hamisha javoblar va takliflar uchun minnatdorchilik bildiring!

Mustaqil ishlash uchun vazifa

Taqdimotda bo'lishi kerak?

- *Nutqlar reglamentiga rioya qilish.*
- *Notiqlar navbatliligiga amal qilish.*
- *Guruh a'zolari o'rtasidagi funksiyalarning aniq taqsimlanishi va ular hatti-harakatlarining kelishuvchanligi.*
- *Axborotlar grafik shaklda ham taqdim etilishi kerak (sxemalar, jadvallarda, grafiklar va hokazo).*
- *Barcha grafik axborotlarga izoh berilishi lozim.*

Taqdimotda nima bo'lmasligi kerak:

- *Vaziyatning bayoni va hikoyasi.*
- *Qatnashchilar nutqlarida ziddiyatlar.*
- *Noxush, tushunarsiz, noaniq ifodalar.*

1. Guruhda taqdimotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari ustida fikr yuriting va muhokama qiling.

2. Muvaffaqiyatli taqdimot qoidalari va "sirlari"ga amal qilib, ish natijalari taqdimotini o'tkazing.

5-Mavzu: Ta'lim texnologiyasining tashkil etuvchisi va tuzilmasi

Reja:

1. Ta'lim texnologiyasi - pedagogika tizimning tashkil etuvchisi.
2. Ta'lim texnologiyasining (qismlari bo'yicha) tuzilmasi.

1. Ta'lim texnologiyasi - pedagogika tizimning tashkil etuvchisi.

II. Asosiy toifa va tushunchalar

Tizim, model, tuzilma, tarkib, element, haraktlanuvchi tuzilma, loyihalash, maqsadni belgilash, maqsad, vazifa, natija.

III. Mavzuni va alohida savollarni o'rganish uchun foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.

2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T., 2001.

3. Bershadskiy M.Ye. V kakix znacheniyax ispolzuyetsya ponyatiye "texnologiya" v pedagogicheskoy literature? //Shkolnie texnologii.- 2002.- № 1.

4. Bepalko V.P. Slagayemie pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
5. Bogolyubov V.I. Evolyutsiya pedagogicheskix texnologiy //Shkolnie texnologii - 2004. - № 4.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod obh. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovnie parametri texnologii obucheniya. //Shkolnie texnologii -2004.- № 4.
8. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004.
9. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opita.- M.: Znaniye, 1989 / Novoye v jizni, nauke, texnike. Ser. “Pedagogika i psixologiya”. № 6.
10. Kushnir A.M. Usulicheskiy plyuralizm. //Shkolnie texnologii.- 2004. № 4.
11. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
12. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
13. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
14. Farberman B.L. Peredovie pedagogicheskiye texnologii. -T.: Fan, 2000.

IV. O‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik tizim modelini tasvirlab bering va uning tarkiblarini ayting.
2. TT modelini tasvirlab bering va uning tarkibi hamda elementlarini ayting.
3. TT harakatlanuvchi tuzilmasini kengaytirib bayon eting.
4. TT loyihalashda nima uchun yo‘naltiruvchi bosqich muhim hisoblanishini tushuntiring.
5. Nima uchun natijaviy bosqichda baholash-tahliliy harakatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntiring.

1.1. Pedagogik tizim tushunchasi

Tizim – o‘zida yaxlit borliqlikni namoyon etib, bunda o‘zaro bog‘liq va o‘zaro harakat qiluvchi qismlarning o‘zgarmas tartibi uning ichki tuzilmasini yaratadi. Bu harakat qiluvchi tuzilma bo‘lib, bunda faoliyat aniq maqsadlarga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik tizim quyidagi tarkiblardan iborat:

- 1. Ta’lim beruvchi** - o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustasi.

2. Ta'lim oluvchi - talaba, o'quvchi, tinglovchi.

3. Ta'limiy maqsad – bu ta'lim berishni biror narsaga intilishi.

4. Natija – (1) ushbu davr ichidan chiqishda ta'lim oluvchini bilishi, uddalashi, qadrlashi zarur bo'lgan, ta'lim berishni biror narsaga kelishidir;

(2) ta'lim jarayonini samarali borishini namoyon qilib, maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi. Natija belgilangan maqsadga mos kelsa, qo'ish o'rgatish jaryoni tugallangan hisoblanadi.


5. O'quv axboroti mazmuni – fan bo'yicha o'qitish mazmunini tashkil etuvchi, adabiyot matnlari va o'quv qo'llanmalar, lug'at va boshqa axborot manbalaridan iborat bo'ladi. O'quv dasturi asosida aniqlanadi va maqsadni belgilashdan kelib chiqib ta'lim beruvchi tomonidan o'zgartirish kiritiladi.

6. Ta'lim texnologiyasi – (1) o'qitish- usul, shakl va vositalar; (2) muloqot, (3) axborot va (4) boshqaruvning *yo'l va vositalari*.

7. Tahliliy-natijaviy tarkib – ta'lim texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar samaradorligini o'lchashning yo'l va vositalari.

Agar pedagogik tizimning tarkibiy tashkil etuvchilaridan bittasi ham bo'lmasa, unday holda ta'lim jarayonining o'zi ham bo'lmaydi, yoki u kuchsiz xususiyatga ega bo'ladi. Har qanday holatda ijobiy natija bo'lsa ham, u tasodifiy bo'lishi mumkin.

1.2. Pedagogik tizim tuzilmasi



Izoh:

“Boshlang‘ich vaziyat” ta'lim texnologiyasini loyihalashni boshlaguncha keng qamrovli axborotni olishdir, ya'ni:

Ta'lim oluvchilar, shu qatorda ularning:

- tayanch bilimlari (avval olgan bilimlar yig'indisi);
 - o'quv - axborotli malakalar;
 - o'qishni davom ettirish, kasbni egallash uchun kerakli o'quv muloqotli (o'zaro fikr almashinuvi bilan bog'liq) malakalar;
 - kasbiy muhim sifatlar;
 - shaxsning ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan sifatleri;
- O'quv – moddiy manba:*
- o'quv materiallarining (kitoblar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar) mavjudligi;
 - ta'lim berish vositalarining borligi va holati;
 - jihozlangan xonalarning (ustaxona, tajriba o'tkazish xonalari va boshqalar) mavjudligi.

Boshlang'ich vaziyatni “aniqlash” maqsadni belgilash uchun muhim.

“Kechiktirilgan, o'zgaruvchan natija”. Moddiy va mas'ul (masalan, ishlab chiqarish sharoitidagi) faoliyat ma'lum sohaning borliq qonuniyatlari bilan bog'liq. Shu bois ishlab chiqarish texnologiyalari texnologik tartibni qat'iy belgilanishi bilan xususiyatlanadi va shu bilan birga natijani belgilangan maqsadga mosligini doimo ta'minlaydi.

Vaholanki, ta'limiy faoliyat shaxsiy-sub'ektiv, hissiyotli xususiyatga ega bo'lib, u mualliflik, individual, ijodiy, tayyorgarliksiz, ya'ni jarayonni o'zida yaratish tabiatida ta'lim berishga asoslanadi, ta'lim beruvchining psixologik-kasbiy xususiyatlari hamda ta'lim oluvchilarni ko'p qirrali shaxsiy xususiyatlari bilan ifodalanadi. Shu bois, ta'lim texnologiyasida belgilangan tartibdan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi, birgina va faqat shu texnologiyani amalga oshirishda sub'ekt tomonidan erishilgan ta'lim natijalari esa, *kechiktirilgan, o'zgaruvchan xususiyatga* ega bo'ladi.

Shunday bo'lsa ham har qanday holatda ham erishilgan natija bir oz o'rtacha ko'rsatkichga yaqin bo'ladi.

2. Ta'lim texnologiyasining tuzilmasi

2.1. Ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismlari va elementlari

Tuzilish (lot. structura – tuzilish, joylashish), tarkibiy qismlarning muayyan o‘zaro aloqasi, o‘zaro joylashuvi; biror narsaning tuzilishi.

Tuzilmaning qismlari – uning shartli bo‘linmaydigan va qiyoslana oladigan qismlari.

Tuzilmaning tashkil etuvchilari - qismlar uchun ularni birlashtiruvchi nom.

Ta'lim texnologiyasi - tizimli toifa bo‘lib, tuzilmaviy tashkil etuvchi va qismlari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'limning yo‘l va vositalari: ta'lim usullari; ta'lim shakllari; ta'limning yo‘llari, texnikalari; ta'lim vositalari.

2. Muloqotning yo‘l va vositalari:

2.1. Ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan birga tezkor qaytar aloqa asosida bevosita o‘zaro harakati:

(1) ta'lim beruvchi - o‘quv axborot manbai, undan foydalanishning tashkilotchisi hamda nazoratchisi;

ta'lim oluvchi - axborot iste'molchisi, ta'sir o‘tkaziladigan boshqaruv ob'ekti;

(2) ta'lim beruvchi - o‘quv axboroti manbai bo‘lib, maslahatchi, ta'lim jarayonining sub'ektlari o‘rtasida axborot almashinuvining muvofiqlashtiruvchisi;

ta'lim oluvchi - o‘quv axborotini egallash va uni ishlatish bo‘yicha shaxsiy mustaqil ijodiy faoliyat sub'ekti.

2.2. Vaqt bo‘yicha bo‘lingan qaytar aloqa bilan ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan birga bilvosita o‘zaro harakati:

(1) ta'lim beruvchining ta'lim manbalari bilan ta'lim oluvchilarni eng kam ishtiroklaridagi o‘zaro harakati;

(2) ta'lim beruvchining bir ta'lim oluvchi bilan, ikkita ta'lim oluvchi o‘rtasidagi: faol o‘zaro harakat;

(3) ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida: ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar guruhi bilan; ta'lim oluvchi guruhlar o‘rtasida: faol o‘zaro harakat.

3. Axborotning yo‘l va vositalari:

- axborotni yetkazish - monolog, dialog, polilog;
- axborotni olish (qaytar aloqa) - tashhis, baholash, kuzatuv.

4. Boshqaruvning yo‘l va vositalari:

- bashoratlash;
- rejalashtirish;
- nazorat;
- baholash;
- axborotni yig'ish, uning to'planishi va tahlil;
- o'zgaruvchanlik va yo'nalishni aniqlash;
- boshqaruv xulosasini qabul qilish;
- o'zgartirish kiritish.

6-Mavzu: Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish tartibi

Reja:

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi va texnologik haritasi
2. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi va texnologik haritasi

1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi va texnologik haritasi

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
1-mavzu	«Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsad va vazifalari
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20– 40 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Kirish-axborotli ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.1. Turizm xizmatlar bozorining milliy Maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni 1.2. «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalari
<p><i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> o'quv kursi bo'yicha umumiy tushuncha berish. Turizm xizmatlar bozorining milliy Maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni, «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsad va vazifalarini o'rgatishdan iborat.</p>	
<p style="text-align: center;"><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • turizm xizmatlar bozorining milliy Maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rnini tushuntirish; • «turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalarini aniqlash. 	<p style="text-align: center;"><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • turizm xizmatlar bozorining milliy Maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rnini tushuntira oladilar; • «turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalarini aniqlaydilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, «Aqliy hujum» usuli.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoaviy.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, vijn, kompyuter, intereaktiv doska.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya.

<i>Monitoring va baholash</i>		Og'zaki nazorat: savol-javob.
1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik haritasi		
<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2.Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3.O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhatini ishlab chiqish.</p>	
I.Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga rejadagi masalalar ro'yhatini chiqaradi va ularga qisqacha ta'rif beradi (1-ilova).</p> <p>1.2. O'quv mashg'ulotining mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3.Talabalar o'quv faoliyatining baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Talabalar tinglaydilar.</p>
II.Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Rejadagi birinchi masala bilan tanishtirish: «Turizm xizmatlar bozorining milliy Maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni» haqida aytib o'tish (1-slayd).</p> <p>2.3. Rejadagi ikkinchi masala bilan tanishtirish: «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalarining mazmun-mohiyatini yoritib beradi (2-slayd).</p> <p>2.4. Mavzuning kerakli joylarini yozib olishlarini aytadi.</p> <p>2.5. Birinchi, ikkinchi masalalar bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi va umumlashtiruvchi xulosa qiladi.</p> <p>2.6. «Aqliy xujum» usulidan foydalangan holda talabalarga mavzu yuzasidan bir necha savollar beradi (3-ilova).</p> <p>2.7.Faol qatnashgan talabalarni baholaydi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p>
III.Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun o'quv-topshiriq beradi (4-ilova).</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib</p>

O‘quv- vizual materiallar**1-ilova****Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar****Ma’ruza rejasi:**

- 1.1. Turizm xizmatlar bozorining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni
- 1.2. «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalari

1-slayd

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar turizmning barqaror taraqqiy etayotganligi va uning istiqboli, ushbu sohani “kelajak industriyasi” sifatida e’tirof etishga asos bo‘lgan edi. Oxirgi o‘n yillikda tez sur’atlarda rivojlanayotgan xalqaro turizm so‘zsiz global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ta’siriga uchradi. Turizm va sayohatlar Butunjaxon Ittifoqining (WTTC) ma’lumotlariga ko‘ra 2013 yilda turizmning dunyo YAIMdagi ulushi 10 % ga yetgan. Ko‘plab mamlakatlarda turizm soxasidan tushgan daromad davlat byudjetining katta qismini tashkil qiladi. Masalan, turizmning YAIM dagi ulushi Fransiyada 10%, Germaniyada 8,6%, Buyuk Britaniyada 9,2%, Rossiyada 6,9% ni tashkil qilgan holda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2,0% dan oshmaydi.

«Turizm xizmatlar bozori» fanining asosiy maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turizm xizmat bozorining iqtisodiy tashkiliy mexanizmini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda o‘quv qo‘llanmada quyidagi vazifalar belgilandi:

- Milliy turizm xizmat bozorini shakllantirishda «turizm» va «turizm xizmat bozori» tushunchalarining mohiyati;
- turizm xizmat bozori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bo‘lgan aloqalarini hisobga olish;
- turizm xizmatlar bozorida talab va taklifning shakllanishi;
- turizm xizmat bozorini segmentlash;
- turizm xizmat bozori saloxiyatini hisoblash usullari;
- xalqaro turistik bozor: rivojlanish xolati va tendensiyalari;
- turizm xizmat bozorining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi;
- turizm xizmat bozorini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.

«Aqliy hujum» usulining savollari:

1. Turizm xizmatlar bozorining milliy maxsus fanlarni o‘qitishda tutgan o‘rni nimadan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasida mehmondo‘stlik industriyasini yanada rivojlantirish uchun qanday vazifalarni hal qilish talab etiladi?

4-ilova

O‘quv topshiriqlari Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari

1. «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Turizm xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish qanday guruhlar bo‘yicha tasniflanadi?

2. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi va texnologik xaritasi

Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi	
1-mavzu	«Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsad va vazifalari
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 10– 25 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1.1. Turizm xizmatlar bozorining maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni 1.2. «Turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalari
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quv kursi bo'yicha umumiy tushuncha berish. Turizm xizmatlar bozorining maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni, «Turistik xizmatlar bozori» fanining maqsad va vazifalarini o'rgatishdan iborat.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • turizm xizmatlar bozorining maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni tushuntirish; • «turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalarini aniqlash. 	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • turizm xizmatlar bozorining maxsus fanlarni o'qitishda tutgan o'rni tushuntira oladilar; • «turizm xizmatlar bozori» fanining maqsadi va vazifalarini aniqlaydilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, «B\BX\B\» usuli.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamo va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik haritasi (1-mashg‘ulot)		
Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Amaliy mashg‘ulot mavzusi, maqsadi va o‘quv faoliyati natijalarini aytadi.</p> <p>1.2. Ta‘lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e‘lon qiladi. Talabalarni doira yoki to‘rtburchak shaklida stollar atrofida guruhlarga bo‘ladi.</p>	<p>Tinglaydilar. Talabalar ixtiyoriy ravishda guruhlarga bo‘linadilar.</p>
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarga fanning mazmun va mohiyatini tushuntiradi. Savollar beradi.</p> <p>2.2. Talabalarning fikrlarini tinglaydi.</p> <p>2.3. Savollarni «Insert» usulida yoritib berilishini tashkil etadi (<i>1-ilova</i>).</p> <p>2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Qo‘shimcha ma‘lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi.</p> <p>2.5. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog‘ozlarga tushirib, har bir guruh taqdimotini o‘tkazishga yordam beradi. Mavzudan kelib chiqib, qo‘yilgan muammo keng yoritilgan fikrlarni qayd qiladi, bilimlarini umumlashtirib, yagona xulosa chiqaradi.</p> <p>2.6. Har bir guruh javoblarini tinglaydi, xatolarini to‘g‘irlaydi, to‘ldiradi. Savollarga to‘g‘ri javob bergan talabalarning fikrini tinglaydi va baholaydi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar. O‘z fikrlarini erkin bildiradilar. Talabalar jamoa bo‘lib ishlaydilar.</p> <p>Har bir guruh vatman qog‘ozlarda vazifani bajaradilar.</p> <p>Taqdimot o‘tkazadilar va xulosa qiladilar.</p>
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag‘batlantiradi.</p>	<p>Eshitadi. Aniqlaydi.</p>

INSERT



Insert jadvali

Mavzu savollari	Men bilgan ma'lumot-larga mos V	Men bilgan ma'lumot-larga zid -	Men uchun yangi ma'lumot +	Men uchun tushunarsiz ?
Turizm xizmatlar bozorining faoliyati nimalardan iborat?				

1.3. Amaliy mashg'ulotning texnologik haritasi (2-mashg'ulot)		
<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p> <p>1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni doira yoki to'rtburchak shaklida stollar atrofida guruhlarga bo'ladi.</p>	Tinglaydilar. Talabalar ixtiyoriy ravishda guruhlarga bo'linadilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarga fanning mazmun va mohiyatini tushuntiradi. Savollar beradi.</p> <p>2.2. Talabalarning fikrlarini tinglaydi.</p> <p>2.3. Savollarni «BBB» usulida yoritib berilishini tashkil etadi (1-ilova).</p> <p>2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi.</p> <p>2.5. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib, har bir guruh taqdimotini o'tkazishga yordam beradi. Mavzudan kelib chiqib, qo'yilgan muammo keng yoritilgan fikrlarni qayd qiladi, bilimlarini umumlashtirib, yagona xulosa chiqaradi.</p> <p>2.6. Har bir guruh javoblarini tinglaydi, xatolarini to'g'irlaydi, to'ldiradi. Savollarga to'g'ri javob bergan talabalarning fikrini tinglaydi va baholaydi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar.</p> <p>O'z fikrlarini erkin bildiradilar.</p> <p>Talabalar jamoa bo'lib ishlaydilar. Har bir guruh vatman qog'ozlarda vazifani bajaradilar. Taqdimot o'tkazadilar va xulosa qiladilar.</p>
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi.</p>	Eshitadi. Aniqlaydi.

BBB usuli qoidasi



BBB jadvali

Qo‘yidagi savollarga javob bering.

Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bilib oldim
Turizm xizmatlar bozori sub'ektlariga kimlar kiradi?			
Turizm bozor hajmi deganda nimani tushunasiz?			
Turistik aylanma harakat nima?			


Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi nimadan iborat?
2. Amaliy mashg'ulotning texnologik haritasi nimadan iborat?
3. Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi va texnologik haritasi ma'ruza mashg'ulotlardan nimasi bilan farq qiladi ?
4. Amaliy mashg'ulotlarda qo'llanadigan ta'lim jarayoni qanday interfaol usullar orqali amalga oshiriladi?

Mustaqil ishlash uchun vazifa:

1. Turistik aylanma harakatni mustaqil ravishda aniq tanlangan turpaket misolida tayyorlab keling

2.2. Ta'lim texnologiyasining tuzilishi



Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Ta'lim texnologiyasi - pedagogika tizimning tashkil etuvchisi nimadan iborat?
2. Pedagogik tizim qanday tarkiblardan iborat?
3. Ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismlari va elementlari nimadan iborat?
4. Ta'lim texnologiyasining (qismlari bo'yicha) tuzilmasi nimadan iborat?

7-Mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda texnik va dasturiy vositalarni qo'llash

Reja:

1. Multimedia vositalari va amaliy dasturlari
2. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari, boskichlari va ularga qo'yiladigan talablar

1. Multimedia vositalari va amaliy dasturlari

Multimedia bugungi kunda gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasi hisoblanadi. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

Axborotning xilma-xil turlari: ananaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompakt-disklar, televizor, videomagnitofon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

Muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ(tezkor) va video-xotira, katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi; "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur holat talim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga talim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. **Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, mant, grafika va animatsiya (ob'ektlarining fazodagi harakati)**

samaralari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega

1) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor

2) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi

3) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish

4) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qullash imkoniyatiga erishiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish hozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi

Interaktiv texnologiyalar:

- ✓ audiokonferensiyalar (audioconferencing);
- ✓ videokonferensiyalar (videoconferencing);
- ✓ ish stolidagi videokonferensiyalar (desktop videoconferencing);
- ✓ elektron konferensiyalar (e-mail, on-line servikes);
- ✓ ovoz kommunikatsiyalari (voice mail);
- ✓ ikki tomonlama sputnik aloqa;
- ✓ virtual borliq (virtual reality);

Nointeraktiv texnologiyalar:

- ✓ bosib chiqarilgan materiallar
- ✓ audiokassetalar
- ✓ videokassetalar;
- ✓ bir tomonlama sputnik aloqa;
- ✓ televizion va radio ko'rsatuvlari;
- ✓ disketa va CD- ROMlar

Distant uslubining quyidagi afzalliklari mavjuddir:

A) o'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi.

B) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish- boshlang'ich, o'rta, universitet, sirtqi- kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

V) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun, qulay sharoit yaratib beradi.

G) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Xozirgi kunda tug'ridan-tug'ri INTERNET tarmog'iga kirish xizmati distant uslubi asosida ta'lim berish uchun elektron pochta, kompyuter konferensiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasida foydalaniladi. Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermedia tizimini berib, u uz ichida INTERNET tarmog'iga kirishning uchta asosiy xizmatini mujassamlashtiradi va foydalanuvchining interfeysini (muloqoti) yanada takomillashtirishga yordam beradi. Multikast texnologiyalarining, konferensiya vositalarining va multimedia kompyuterlarining mavjudligi INTERNET tarmog'i orqali videokonferensiyalarni yo'lga qo'yishga imkoniyat beradi. Shunday qilib, bunday gigant axborotlashgan tarmoq o'quvchilarning distant uslubi asosida zamonaviy bilim olishlari uchun vaqti yoki qayerda to'rganligiga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi. Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarining katta hajmi va ularni uzatishning yuqori tezligi bilan bog'liq ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning saqiy texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamg'aruvchilarning yangi namunalari yaratishning boshlanishi bo'ladi.

Multimedia uchun zamonaviy CD-ROM texnologiyalar taqdimnomasi ilk marta 19 - yili Sietldagi konferensiyada (Second Microsoft CD-ROM Conference) bo'lib o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'loqonli multimedyaning paydo bo'lishi boshlanishi deb hisoblanadi.

Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compast Disk Interaktive- interaktiv videodisklar) bo'ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video- murvatni boshqarish yo'li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi. Videotizimning asosi bo'lgan ixtisoslashgan mikroprotessor turkumi. Oxirgi paytlarda bulardan ham zamonaviylari bozorda taklif qilinmoqda: drayverlar (Video Driver, Audio Driver va VRAM Driver va CD-ROM Driver) va alohida kichik tizimlar darajasidagi dasturiy interfeys; galma-gal paydo bo'luvchi audio va video axborot saqlovchi, ma'lumotlarni CD-ROM jamg'aruvchisidan foydalanilganda tezligi bir tekisligini ta'minlovchi maxsus shaklli fayllar;

sub'ektiv qabul qilishga yo'naltirilgan va ba'zi yo'qotish yoki buzib kursatishlarga yo'l qo'yuvchi axborotning turli namunalari /tiklash algoritmlari.

Multimedyaning amaliy dasturlari Multimedia - tizimlar hozirgi paytda ta'lim va kasbga tayyorlash sohasida, nashriyot faoliyatida (elektron kitoblar), biznesni kompyuterlashtirish uchun (reklama, mijozlarga xizmat ko'rsatish), axborot markazlarida (kutubxona, muzey) va hokazolarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Bilimlarni chuqirlashtirishda, o'qitish muddatini qisqartirishda va bir o'qituvchiga tinglovchilar sonini oshirishga imkon beruvchi kompyuterli dars beruvchi multimedia tizimlar alohida o'rin egallaydi.

Kompyuterli dars berish tizimlari axborot izchil ravishda taqdim etiladigan videokassetadagi kurslarga qiyoslaganda kuchli tarmoq imkoniyatlariga ega va tinglovchilarni qiziqtirgan mavzuga to'g'ridan-to'g'ri ulanishga imkon beradi. Bundan tashqari, mazkur tizimlar bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarga ega bo'lish jarayonlarini baholash va nazorat qilishning samarali vositalari bilan jihozlangan.

Elektron kitoblar. CD-ROM rusumidagi katta hajmli uncha qimmat bo'lmagan xotira- qurilmalarning mavjudligi tufayli elektron kitoblarning paydo bo'lishi mumkin bo'ldi. Elektron kitob atamasi sahifalari displey ekranida tasvirlanadigan yangi rusumdagi kitobni anglatadi. Boshqacha aytganda, bu axborot interaktiv tizimi foydalanuvchi (o'quvchi) uchun sahifama-sahifa tashkil etilgan axborotga kirishni ta'minlaydi.

Elektron kitob sahifalaridagi axborot uch xil bo'lishi mumkin: estetik (kitobning "yoqimli" ko'rinishini belgilovchi va uning o'quvchiga ta'sirini kuchaytiruvchi), axborot (kitob mazmunini ochib boruvchi) va nazorat (piktogramma, ikona, dialogli darchalar, dinamik menyu va hokazolar ko'rinishida taqdim etilgan material).

Elektron kitoblarni to'rtta turga bo'lish mumkin: qomusiy, axborot, o'qituvchi va imtihon oluvchilarga.

Elektron kitoblarning birinchi turi muayayn mavzu bo'yicha ulkan hajmdagi axborotni o'zida saqlaydi. Croler Enceclopedia, Comptons Multi media Enceclopedia, Mikrosoft Bookshelf va boshqa shu kabi mashhur mahsulotlar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Elektron kitobning ikkinchi turi birinchisiga o'xshamaydi, biroq bu kitoblarda saqlanuvchi axborot unchalik keng emas va maqsadga yo'naltirilgan xususiyatga ega. Masalan, Oxford Textbook of Medicine on Compact Disk, Elsevie, s Aktive Library on Corrosion va boshqalar.

Uchinchi tur elektron kitoblar amaliyotda ko'p tarqalgan va ta'lim jarayonida, bolalar bog'chalarida (masalan, Broderburd,s Living Book) hamda o'qishdan keyingi malaka oshirish kurslarida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur kitoblar badiiy asarlarni o'zida saqlashi mumkin (masalan, Herman Melville,s Moby Dick, Gustave Flaubert,s Madame Bovary, Michael Crichton,s Jurassic Park, Adam Hitchhiker ,s Guide to Galaxy).

To'rtinchi tur kitoblarda uchta muhim komponent: masalalar (vazifalar) banki, testlash va javoblar moduli, tahlil va baholash uchun o'quvchi javoblaridan foydalanuvchi ekspert tizimi mavjud.

Yuqorida keltirilgan elektron kitoblar tasnifi yagona emas. Masalan, elektron kitoblarda saqlanuvchi axborot turi: matnli kitoblar, statik rasmlar, berilgan kitoblar, harakatlanuvchi rasmlar, "gapiradigan" kitoblar, multimedia- kitoblar, gipermedia- kitoblar, telemedia- kitoblar va kibernetik kitoblarga ko'ra tasnif qilish taklif etilgan edi.

Multimedia- kitoblar bitta tashuvchida (CD-ROM yoki magnit diskda) yozilgan va bir chiziqda (to'g'ri) tashkil qilingan, ya'ni zarur axborot izchil ravishda aks ettirilgan matn audio, statik tasvir va videodan foydalaniladi.

Polimedia- kitoblarda, avvalgilardan farqli ravishda o'quvchi axborotni taqdim etish uchun bir necha turli tashuvchilar (CD-ROM, magnitli disk, qog'oz va boshqalar) kombinatsiyasidan foydalaniladi.

Gipermedia- kitoblar, multimedia- kitoblar bilan ko'p umumiylikka ega bo'lsa-da, o'zidagi axborotning notekis tashkil etilishi bilan farqlanadi, masalan, o'quvchi "sichqon" yordamida asosiy materialni bir chetga qo'yib, kontekst va foydalanilayotgan usul bo'yicha atama va tushunchalar tizimiga tuzatishlar, sharhlar so'rashi mumkin.

Intellektual - kitoblar ma'nosi jihatidan ilgari kiritilgan imtihon oluvchi kitoblarga yaqin va o'quvchi qobilyatlariga u bilan muloqot jarayonida jadal moslashishi mumkin.

So'nggi ikki kitobning istiqboli ham qiziqligi shubhasizdir. Telemedia-kitoblar masofadan turib o'qitadigan taqsimlovchi interaktiv tizimni qo'llab-quvvatlash uchun telekommunikatsiya imkoniyatlaridan foydalanadi. Kibernetik-kitoblar ham matematik modellar vositalarini o'zida saqlaydi va shu bois bayon etilgan hodisalar va ob'ektlarni har tomonlama o'rganish hamda tadqiq etish imkoniyatini o'quvchiga taqdim etadi.

Xorijiy tillarni o'rganish uchun tizimlar. Bunday katta miqdordagi amaliy multimedia- tizimlar orasida Learning English in Multimedia o'qituvchi tizimini ajratib ko'rsatishi mumkin. U boshlovchilar uchun ingliz tilini o'qitish maqsadlariga mo'ljallangan hamda IFAP/ IRI (Italiya) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Kurs modul prinsipi bo'yicha qurilgan, har bir modul u yoki bu hayotiy vaziyatga muvofiq keladi. Ko'rib chiqilayotgan holatlar va ularga muvofiq keluvchi xatti-harakatlar uchun tegishli so'z, tushuncha, jumla va gaplar kiritiladi. Shunday qilib, tinglovchilar o'z lug'at boyligini to'ldiradi, grammatika va sintaksis qoidalarini o'rganadi

Kompyuter dasturi yordamida o'qitish og'zaki nutqni tinglash va talaffuzni nazorat etish uchun videokasseta va audiokassetadan, shuningdek, grammatika qoidalari berilgan ikki o'quv qo'llanmasidan foydalanilgan holda to'ldiriladi. Uz-o'zini nazorat qilishning bunday usuli o'qitish jarayoni samaradorligini oshiradi.

2. Elektron o'quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari, boskichlari va ularga kuyiladigan talablar

Elektron o'quv adabiyotlar - zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saklash, bilimlarni interaktiv usulda takdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

Elektron darslik - kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini kullashga, mustakil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali uzlashtirishga muljallangan bulib:

- o'quv va ilmiy materiallar fakat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki ulchamli grafik shaklda;
- multimedia (kup axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch ulchamli

grafik kurinishda, ovozli, video, animatsiya va kisman verbal (matn) shaklda;

- taktil (his kilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron darsliklarni yaratish tamoyillari

Modullilik tamoyili: O'quv materialini xajmi buyicha kichik, ammo tarkibi buyicha bir butun bo'lgan modullardan (bo'limlardan) iborat bo'lgan bo'laklarga bo'lib chikish lozim.

To'liqlik tamoyili: Har bir yaratilayotgan bo'lim (modul) kuyidagi tashkil etuvchi xadlardan: nazariy kismdan, nazariy bilimlarni tekshirish buyicha tuzilgan nazorat savollari, testlar, mustakil yechish uchun topshirik va amaliy kunikmalarni o'rganishga yunaltirilgan mashklardan, tajribalar va tarixiy sharxlardan iborat bulishi kerak.

Ko'rgazmalilik tamoyili: Har bir bo'limda (modulda) yangi tushunchalar, fikrlar hamda uslublarni tushunarli va eslab kolishni yengillashtiruvchi matnlar xajmi ulchamlari kichik bo'lgan kadrlarning ketma-ketligidan iborat bulishi kerak.

Tarmoklanish tamoyili: Har bir bo'limlardan (modullardan) gipermatnli xavolalar orkali boshka bo'limlarni shunday uzaro boglash kerakki unda foydalanuvchi istalgan paytda boshka bo'limlarga bemalol utishni tanlash imkoniyati bulsin. Tarmoklanish tamoyili o'rganilayotgan o'quv predmeti materiallarini cheklamasada, balki fanni boskichma-boskich uzlashtirib borishni kuzda tutadi.

Boshkaruvchanlik tamoyili: Ta'lim oluvchilar ekran kadrlarining almashuvini uzlari mustakil boshkara olishlari, istalgan mavzu yoki ma'lumotlarni, tushunchalar, fikrlar, illyustratsiya materiallari va multimediyalarni ekranga chikarish imkoniga ega bulishi kerak. O'quvchilarga uzlarining bilim va kunikmalarini nazorat savollari va testlarga javob berib va amaliy mashgulotlarni bajarigan xolda tekshirib kurishi kabi imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi.

Kunikuvchanlik tamoyili: Elektron darslik o'quv jarayonida anik foydalanuvchi ehtiyojlariga kunikib borishini ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning chukurligi va murakkabligini hamda ta'lim oluvchining kelgusi ta'lim boskichiga boglik xolda amaliy yunaltirilganligini uzgartirib borishga imkoniyat yaratishi kerak. Foydalanuvchilar uz ehtiyojlariga kura kushimcha illyustratsiya materiallarini yuzaga keltira olishlari, o'rganilayotgan tushunchalarni grafikaviy va geometrik jixatdan talkin kila olishlari lozim.

Kompyuterli qo'llab quvvatlash tamoyili: Bu tamoyilda ta'lim oluvchilar o'rganish jarayonining istalgan paytida o'quv materialining moxiyatiga uziga dikkatni jalb etishga undovchi topshirik va masalalarni karab chikish hamda ularni bajarishda kompyuterdan foydalanishlari kerak. Kompyuter nafakat murakkab almashtirish amallarini, turli xil hisoblashlarni va grafiklarni tuzib chikishi, rasm va sxemalarni chizish balki turli xil murakkab darajadagi amallarni bajarishi lozim. Oldindan o'rganilgan hamda olingan natijalarni nafakat javob berish boskichida

balki ixtiyoriy xolatlarda ham tekshirib kurish lozim.

Yig'iluvchanlik tamoyili: Elektron darslikni yangi bo'limlar va mavzular, fan va texnika yangiliklari bilan kengaytirib va tuldirib borishga imkon berishi hamda maxsus va alohida fanlar buyicha elektron kutubxonalarini yoki ta'lim oluvchilar, (u ukiyotgan mutaxassislik va kursga mos xolda) ukituvchilarning yoki tadkikotchilarning xususiy elektron kutubxonalarini shakllantirishi kerak.

Elektron darslikka kuyiladigan asosiy talablar

Elektron darslikni yaratish jarayonida didaktik, uslubiy, psixologik-pedagogik, texnik-texnologik, estetik va ergonomik talablar kuyiladi.

Kuyida elektron darslikka bo'lgan umumiy talablar keltirilgan:

Elektron darslikning tuzilmasi va mazmuni o'quv materialini chukur o'rganishga muljallash bilan bir vaktida o'rganilayotgan fanning o'quv dasturiga mos kelishi kerak.

O'qitishda. ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni sunggi yutuklarini hisobga olinishida o'quv materiali mazmunining yetarlicha chukurligini, ishonchliligini ta'minlaydi. O'quv materialini elektron darslik yordamida uzlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda kurilishi kerak. ***Masalan; tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, uxshashlik, taxlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli taxlil uslubi.***

O'qitishning erishuvchanlik talablari - elektron darslik vositasida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning yoshi hamda individual xususiyatlariga xos o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chukurlik darajasini aniklash zaruriyatini bildiradi. ***O'quv materialini xaddan ziyod murakkablashtirish va ortikcha yuklash mumkin emas, unda ta'lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik kiladi.***

O'qitishning muammoviyligini ta'minlash talablari. Agar ta'lim oluvchi muammoli topshiriklar va mashklarni bajarishga harakat kilsa, uning fikrlash faolligi usadi. Ushbu didaktik talabning elektron darslik yordamida bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalardan kura, sezilarli ravishda yukori bo'ladi.

O'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash talablari, ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili kabul kilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

O'qitishni ongliligini, ta'lim oluvchining mustakilligi va faolligini ta'minlash talablari - o'quv faoliyatining yakuniy maksad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb kilish buyicha ta'lim oluvchilarning mustakil va ijodiy ishlashlari uchun elektron darslik va vositalari bilan ta'minlashni kuzda tutadi.

Elektron darslikdan foydalanishda o'qitishning tizimliligi va ketma-ketligi talablari - o'rganiladigan fan soxasida bilimlar va kunikmalarning ma'lum tizimining ta'lim oluvchilar tomonidan uzlashtirilishi ketma-ketligini

ta'minlanishini bildiradi. Bilim, kunikma va maxorat - ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va xayotda kullanilishda uz urnini topishi zarur.

Elektron darslikdan foydalanishda bilimlarni uzlashtirish mustaxkamligi ta'lim oluvchilarning o'quv materialini mustaxkam uzlashtirishlari uchun, ularni chukur fikrlash, xotirada saklash kabi kobiliyatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Elektron darslikda o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari bajarilishi kerak.

Elektron darslikning mazmuni va tarkibi ta'lim standartining talablariga mos kelishi kerak.

Elektron darslik o'quv faoliyatining izlash, yigish, saklash, taxlil, ishlov berish kabi kurinishlarini avtomatlashtirishni; hisoblashlarni, loyixalash va konstruksiyalashni, tajriba, eksperimentning natijalariga ishlov berishni, nazorat topshiriklarni, axborotli ishlov berishni avtomatlashtirishni kuzda tutishi kerak.

Elektron darslik murakkab ob'ektlar (mashina, uskuna, apparat, moslama va x.) ishining imitatsiyasini, turli xildagi jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vakt masshtabida utish vositalarini tarkibida saklashi kerak.

Elektron darslikning trening vositalari- ta'lim oluvchini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga boglik xolda virtual muxitda tayyorlashni amalga oshirish kerak.

Elektron darslikka uziga xos kuyidagi didaktik talablar qo'yiladi.

Moslashuvchanlik talablari- elektron darslik ta'lim oluvchi individual imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilimlari, kunikmalari va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bulishi kerak.

O'qitishning interfaollik talablariga o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilan elektron darslikning uzaro hamkorligini ta'minlash kiradi. Elektron darslik vositalari interfaol mulokot va teskari alokani ta'minlashi kerak. Mulokotni tashkil etishning muxim kismi bulib, foydalanuvchi harakatiga elektron darslikning reaksiyasi hisoblanadi. Teskari aloka nazoratni amalga oshiradi, keyingi bajariladigan ishlar buyicha tavsiyalar beradi, ma'lumotnoma va tushuntiruvchi axborotlarga doimiy kirishishni amalga oshiradi.

Elektron darslikning o'quv axborotini takdim kilishida. kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy kilish talablari. Zamonaviy elektron vositalar imkoniyatlari va elektron darslikda o'quv axborotini namoyish kilish sifatini taxlil kilishni kuzda tutadi.

Elektron darslik bilan ishlashda ta'lim oluvchining intellektual kobiliyatini rivojlantirish talablari. Fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustakil karorlar kabul kila olish maxorati, axborotga ishlov berish buyicha kunikmalarni shakllantirishni kuzda tutadi.

Elektron darslik-o'quv materialini namoyish kilishning tizimlilik va funksional boglikligi talablarini bajarishi kerak.

Elektron darslik-ta'lim berishning tulikligi va uzluksizligini ta'minlashi kerak.

Elektron darslik uzida muammoli va izlanish topshiriklarining intellektual o'rgatuvchi tizimiga ega bulishi kerak.

Elektron darsliklarga kuyiladigan didaktik talablar bilan uslubiy talablar uzviy boglikdir. Uslubiy talablar elektron darslikka muljallangan o'quv fanining uziga xosligi va xususiyatlarini, uning konuniyatlarini izlanish usullarini, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni kuzda tutadi.

Elektron darslik kuyidagi uslubiy talablarni koniktirishi kerak.

Elektron darslik- o'quv materialini takdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining uzaro boglikligiga tayangan xolda kurilishi kerak.

Elektron darslik o'quv materialini yukori tartibli tuzilma kurinishida ta'minlashi kerak. Fanlararo mantiqiy uzaro bogliklik hisobga olinishi kerak.

Elektron darslikda ta'lim oluvchiga o'quv materialini boskichma- boskich uzlashtirish uchun oshirish turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi kerak.

Elektron darslikda barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochik tizimiga ega bulishi, uzgaruvchan o'rganiladigan ob'ektlar yoki jarayonlarning boglikligi namoyish kilinishi kerak.

Elektron darslikka kuyiladigan psixologik talablar

Elektron darslikda o'quv materialini namoyish kilish nafakat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish kilish xolatlariga ham mos kelishi kerak. Elektron darslik kabul kilish, dikkat, fikrlash, tasavvur kilish, xotira saklash kabi psixologik jarayonlari xususiyatlarini hisobga olgan xolda ishlab chikilishi kerak.

Elektron darslikdagi o'quv material ta'lim oluvchilarning yoshini, tayanch bilimlarini inobatga olib tuzilishi kerak.

Elektron darslik obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yunaltirilgan bulishi kerak.

O'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlash talablari, talabalar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili kabul kilishi va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

Elektron darsliklarga kuyiladigan texnik, texnologik talablar:

- lokal va boshka tashki axborot tashuvchilarda va tarmokli tartibotda harakatlanishi;
- multimediya va telekommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalarini maksimal kullash;
- ishlash kobiliyatining puxtaligi va turgunligi;
- geterogenligi (elektron darslik spesifikatsiyasida kuzda tutilgan turli xildagi kompyuterli va boshka shunga uxshash vositalarida turgun ishlashi);
- nuksonlarga turgunligi;
- resurslardan samarali va to'g'ri foydalanish;
- testlashtirilganligi.

Elektron darslikning turli xildagi kurinishlariga nisbatan maxsus texnologik talablar kullanishi mumkin.

- turli xildagi elektron tashuvchilarni kullash imkoniyati;
- elektron va kogosli tashuvchilarni kombinatsiyalashtirish imkoniyati;

- lokal va tarmokli tartibotda ishlash imkoniyati;
- tarmokda fizik lokallashtirilgan va tarkatilgan komponentlarning miqdori;
- o'qitishni boshkarish jarayoni va umumiy axborot bazalarining vositalari miqdori;
- jamoaviy ishlarni tashkil kilish vositalari miqdori (ukituvchi yoki boshka ta'lim oluvchilar bilan teskari aloka);

Elektron darslikni ishlab chikish boskichlari

Elektron darsliklarni yaratishda quyidagi boskichlarga amal kilish tavsiya etiladi:

- Fanga oid manbalarni tanlab olish;
- Manbalardan foydalanish va kayta ishlash huquqi to'g'risida shartnomalar tuzish;
- Mundarija va tushunchalar ruyxatini ishlab chikish;
- Bo'limlardagi (modullardagi) matnlarni kayta ishlash va yordam berish bo'limini tuzish;
- Gipermatnni elektron shaklda amalga oshirish;
- Kompyuterli kullab kuvvatlanishini ishlab chikish;
- Materiallarni multimediali ob'ektlarga keltirish uchun tanlab olish;
- Tovush jurligida amalga oshishini ishlab chikish va tadbik etish;
- Materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash;
- Elektron darslikni foydalanishga tayyorlash;
- O'qitish metodikasini ishlab chikish.

Elektron darsliklarni ishlab chikish boskichma-boskich amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Birinchi boskichda shunday chop etilgan va elektron nashrlarni manbalar sifatida tanlab olish maksadga muvofik bo'ladi, agar ular:

- Davlat ta'lim standartlari buyicha tuzilgan dasturlarga tula mos kelsa;
- mukammallashgan va gipermatnlar yaratish uchun kulay bulsa;
- kup sondagi amaliy mashk va topshirikdardan tashkil topgan bulsa;
- kulay bir tizimga keltirilgan bulsa.

Ikkinchi boskichda tuplangan manbalardan narx va sifat nisbati optimal bo'lganlari tanlab olinadi.

Uchinchi boskichda elektron darslikning mundarijasi ishlab chikiladi, ya'ni: materialni xajmi buyicha kichik (minimal) bo'lgan mavzulardan tashkil topgan bo'limlarga ajratib chikiladi, ammo mazmuni buyicha mujassamlashgan, hamda fanni uzlashtirish uchun zarur va yetarli bo'lgan tushunchalarning ruyxati tuzib chikiladi.

Turtinchi boskichda manbalarning matni tuzilgan mundarijaga, indeksga va bo'lim tuzilmasiga mos ravishda kayta ishlashdan utkaziladi; ruyxatga kiritilmagan matnlar olib tashlanadi, bo'limlar (modullar) o'rtasidagi alokalar va boshka gipermatnli boglanishlar aniklanadi. Shunday kilib, gipermatnning loyixasi kompyuterli amalga oshirilishi uchun tayyorlanadi.

Beshinchi boskichda gipermatnlar elektron shaklda amalga oshiriladi. Natijada o'quv maksadlariga erishish uchun foydalanishga muljallangan oddiy

elektron nashr yaratiladi. *Kupchilik aynan shunday oddiy elektron nashrlarni elektron darslik deb ham yuritishadi. U amalda xech kachon elektron darslik talablariga tulik javob bermaydi.*

Oltinchi boskichda kompyuterli kullab kuvvatlanishi ishlab chikiladi ya'ni har bir aloxida xol uchun har kandy matematik amallar kompyuterga yuklanishi va undan javob kandy shaklda olinishi kerakligi aniklanadi; elektron darslikning intellektual yadrosi loyixalanadi; foydalanuvchi uchun elektron darslik intellektual yadrosini kullash buyicha kursatma ishlab chikiladi.

Natijada o'quvchilar uchun zaruriy vositaga aylantiruvchi xossalarga ega bo'lgan, auditoriya mashgulotlari uchun foydali bo'lgan va ukituvchilar uchun kulay foydalanishga tayyor bo'lgan elektron darslik yaratiladi. Demak, elektron darslik multimedia vositalari yordamida yanada takomillashtirish (ovoz berish va vizuallashtirish) uchun tayyor bo'ladi.

Yettinchi boskichda aloxida tushunchalar va fikrlarni tushuntirish yullari uzgartiriladi va multimediali ob'ektlar bilan almashtirish uchun matnlar tanlab olinadi.

Sakkizinchi boskichda aloxida bo'limlardagi (modullardagi) matnlarni ekranda matnli axborotlar tizigligidan xolos ettirish maksadida ularni ovoz bilan jur ettirish orkali ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni tushunishini yengillashtiradi.

Ovoz jurligida ishlab chikilgan matnlar diktofonga yozib olinadi va kompyuterda amalga oshiriladi.

Tukkizinchi boskichda bo'limlarni (modullarni) vizuallashtirish ssenariyalari ishlab chikiladi. Yanada ko'rgazmali bulishiga erishish uchun, ekranni matnli ma'lumotlardan maksimal tozalash va ta'lim oluvchilarning emotsional xotiralaridan o'rganilayotgan materiallarni tushunishini yengillashtirish uchun eshitish xotiralarini ishlatish kerak bo'ladi.

Matnlarni vizuallashtirish, ya'ni yaratilgan ssenariyalarni rasmlar, grafiklar va animatsiyalar bilan kompyuterli gavdalantirish ishlari bajariladi.

Shu bilan elektron darslikni ishlab chikish jarayoni tugaydi va uni foydalanishga tayyorlash boshlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, elektron darslik foydalanishga tayyorlash uning tarkibiy va multimediyali tashkil etuvchi xadlariga ba'zi bir uzgartirishlar kiritishni kuzda tutishi mumkin.

Uninchi boskichda elektron darslikni foydalanishga tayyorlash.

Elektron darslikni foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlarning tarkibi kuyidagilardan iborat bulishi kerak:

- Sinovdan utkazish;
- Undan foydalanish buyicha uslubiy qo'llanma yozish;
- Uslubiy qo'llanmani ishlab chikish;
- Elektron darslikni rasmiy ruyxatdan utkazish;
- Patent idorasiga rasmiy kayd ettirish uchun kerakli hujjatlar tuplamini tayyorlash.

Un birinchi boskich. Elektron darslik vositasida o'qitish metodikasini ishlab chikish. Ushbu boskichda fanni elektron darslik vositasida o'qitish buyicha

metodik tavsiyalar ishlab chikiladi.

Tayanch soʻzlar: Multimedia, multimedia vositalari, koʻrgazmali oʻqitish, koʻrgazmali dasturlar, audio(tovush) vositalari, video vositalari, videodarsliklar yaratish uchun dasturlar, elektron oʻquv adabiyotlarini yaratish tamoyillari, boskichlari va ularga kuyiladigan texnik, texnologik talablar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar

1. Multimedia vositalari nimadan iborat?
2. Elektron kitob suzini taʼriflab bering.
3. Multimedia amliy dasturlari nimadan iborat?
4. Interaktiv texnologiyalarga nima kiradi ?
5. Elektron oʻquv adabiyotlarini yaratish tamoyillari, boskichlari va ularga kuyiladigan talablar nimalardan iborat?
6. Elektron darsliklarga kuyiladigan texnik, texnologik talablar nimalardan iborat?

8-Mavzu: MUSTAQIL ISH VA MUSTAKIL TAʼLIMNI TASHKIL QILISH

Reja:

1. Mustaqil ishning maqsadi va tashkil qilish vazifalari
2. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash
3. Konsepsiya asosida yaratilgan mustakil taʼlim tizimining maqsadi
4. Mustaqil ishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish

1. Mustaqil ishning maqsadi va tashkil qilish vazifalari

Talabaning mustaqil ishi oʻquv rejasida muayyan fanni oʻzlashtirish uchun belgilangan oʻquv ishlarining ajralmas qismi boʻlib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan taʼminlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Oliy taʼlim muassasasida talabaning xaftalik mustaqil ishlarining umumiy xajmi bakalavriyatning kunduzgi boʻlimdagi 22 soatdan ortigʻini tashkil etadi.

Oʻquv semestri yakunida talabaning mustaqil ishi boʻyicha toʻplagan reyting ballari har bir fan boʻyicha auditoriyadagi oʻquv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, talabaning reyting daftarchasida va oʻqish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

Mustaqil ishining asosiy maqsadi – oʻqituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan oʻquv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chikilgan yechim, loyixa yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasini himoya qilish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- nisbatan oson o'zlashtirish mumkin bo'lgan mavzular (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarida o'tilmagan mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- kurs ishi (loyixasi)ni bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish (keys-stadi);
- maket, model va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda kafedralar boshqa shakllardan ham foydalanilishi mumkin.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi;

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet kengashida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy usulik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Talaba uchun muayyan fan buyicha mustakil ish topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan topshiriqda mustaqil ishni bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbaasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, usulik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Kafedra mudiri va tegishli fakultet dekani taqsimoti asosida oliy ta'lim muassasasi rahbariyati talabalarga mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy axborot manbai va vositalarini belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, tarmoq muassasalari va korxonalaridan mustaqil ish uchun zaruriy ma'lumotlar to'plash yuzasidan so'rovnoma xatlarini rasmiylashtirib beradi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va Internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

2.Talabaning mustaqil ishini nazorat qilish va baholash

Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi (ishchi o'quv rejasining 10-ustunida keltirilgan) professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy-uslubiy bo'limida (1540 soat doirasida) qayd etiladi.

Talaba kurs ishi (loyihasi)ni hamda malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga ajratilgan soatlar, professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejasining o'quv ishlari bo'limida qayd etiladi.

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va fakultet dekani tomonidan tasdiklanadigan konsultatsiyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiya soatlari ishchi dasturda aks ettirilgan mavzularga mos gurux jurnalida qayd etib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va uning shaxsiy ish rejasida o'z aksini topadi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ish bo'yicha, an'anaviy guruh reyting oynasida va (yoki) fakultetning maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash me'zonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi va fakultet Ilmiy Kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni, baholash me'zonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan usulik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Mustaqil ish bo'yicha belgalangan maksimal reyting balining 55 % dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'alishlari va fakultet Ilmiy Kengashlarida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi bo'yicha hisobotlar to'plami yakuniy nazorat topshirgan paytda kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Talabaning kurs ishi (loyihasi)ni hamda malakaviy bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini ro'yxatga olish va saqlash tartibi tegishli me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

3.Konsepsiya asosida yaratilgan mustakil ta'lim tizimining maqsadi

OO'M ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi tamonidan taklif etilayotgan Mustakil ta'lim tizimining **asosiy maqsadi** - ukitish jarayonini individuallashtirish hamda differensiyallashtirish tamoyillari asosida tashkil etilishini ta'minlash, oliy ta'lim tizimida faoliyat kursatayotgan yetakchi professor-ukituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan xolda, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchilar uchun uzluksiz bilim olishiga imkoniyatini yaratish, ta'lim olishining oshirishning turli shakllarini uzaro bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat.

Bu tizim elektron o'quv-metodik resurslar, integrallashgan elektron lugat-ma'lumotnomalar hamda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimini uz ichiga oladi.

- fan, texnika va texnologiya tarakkiyotining bugungi darajasi bilan ukituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlash jarayoni orasidagi nomuvofiklikni tizimga keltirish;

- oliy pedagogik ta'lim muassasalarining elektron axborot-ta'lim muxiti va integrallashgan o'quv-ilmiy resurslarining yetarlicha yaratilishini ta'minlash;

- ta'lim jarayonini axborotlashtirish borasida tuplangan ilgor tajribalarning amaliyotga yetarlicha joriy etilishini ta'minlash;

- zamonaviy axborot texnologiyalari muxitida ta'lim oluvchilar mustakil malaka oshirishini tashkil etish imkonini beruvchi elektron o'quv- metodik majmualarning yetarlicha yaratilishini ta'minlash;

- ta'lim jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat kilish buyicha vakt resursining cheklanganligi;

- ta'lim oluvchilar mustakil bilim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat kilishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yuriknomalar, kursatmalarning yetarli emasligi va talaba darajasida ishlanganligini yoritish.

Mustakil ta'lim tizimining **an'anaviy malaka oshirishdan farqi:**

- tizimning moslanuvchanligiga bog'liq ravishda ta'lim oluvchining harakatchanligi;

- ta'lim oluvchilarning mustakil ishlash imkoniyatini kattaligi;

- o'quv-metodik ta'minotni sinxron va asinxron shakllarda ta'lim oluvchilarga yetkazish imkoniyatlari malaka oshirish jarayoni samaradorligini ta'minlashi;

- etakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat kursatayotgan yukori malakali professor-ukituvchilar hamda olimlar saloxiyati hamda ta'limiy resurslardan tularok foydalanish asosida respublikaning barcha mintakalarida malaka oshirish sifati hamda samaradorligining markaziy muassasalar darajasida bulishi ta'minlanishi;

- ta'lim olishning individuallashtirishga karatilgan yetakchi texnologiyalarni joriy etish asosida ta'lim oluvchilar mustakil bilim olishga bulgan ehtiyojining tula kondirilishi.

Mustakil ta'lim kuyidagi didaktik vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi:

- ta'lim oluvchilarning keng auditoriyasini kamrab olish va uning natijasi sifatida uzaro mulokotlashuvchi hamkorlik muxitini yaratish;

- ta'lim oluvchilar guruxini faollashtirish va muvofikdashtirish, topshiriklarni taksimlash;

- ta'lim oluvchilarni kuzatish, yordam kursatish hamda ular bilan mulokotni individuallashtirish hamda differensiallashtirishga karatilgan axborot muxitini yaratish;

- multimedia texnologiyalarini kullash orkali ta'lim oluvchilarda malaka oshirishga kizikishni orttirish;

- ta'limning interaktiv xususiyati asosida ta'lim oluvchilarning fikrlash kobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv materiallarini uzlashtirishning samaradorligini oshirish;

- real xolatlarda namoyish kilinishi kiyin, yoxud murakkab bulgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini yaratish;

- an'anaviy hamda masofaviy ta'lim o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarga mustakil izlanish yuli bilan materiallarni topish, urganish hamda muammoli masalalarni xal etish orkali ularda ma'lum tadjikot ishlarini amalga oshirish kunikmalarini shakllantirish;

- ta'lim oluvchilarning amaliy kasbiy kunikma va malakalarini rivojlantirishda o'quv trenajeri funksiyasini bajarishi;

- o'quv jarayonini gurux va fan kesimida (o'quv jarayonining grafigi, tashki tashhis, joriy, oralik va yakuniy nazorat va boshkalar) taxlilini tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustakil tanishish, tanlash, axborot hamda ma'lumotlarni taxlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi.

4. Mustaqil ishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish

Ilmiy-tadqiqot mavzusini tanlash va baholash

Ilmiy tafakkur muammoni yechish bilan bog'liq. Muammoning yo'qligi fanda tadqiqotning barham topishiga va shu bilan fan rivojlanishining to'xtashiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishlari qo'yidagi omillardan iborat: ilmiy yo'nalish, muammo va mavzu.

Ilmiy yo'nalish - fanning muayyan sohasida yirik, fundamental yoki amaliy masalani hal qilishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar jamlanmasi. Ilmiy yo'nalish tarkibiy birliklarga bo'linadi: kompleks muammolar, mavzular va savollar.

Muammo – yechimini, tadqiqotni talab qiladigan murakkab masala. U ma'lum vaziyatning hosilasi bo'lib, bu vaziyat amaldagi eski bilim va tajriba yoki nazariy yo'l bilan olingan yangi bilim o'rtasida tafovut paydo bo'lganda yuzaga keladi. Kompleks muammo (yoki problematika) odatda bir yo'nalishdagi bir necha murakkab masalalarni qamrab olgan muammolar jamlanmasidir.

Mavzu - muammoning tadqiqot talab qiladigan muayyan sohasini qamrab oladigan ilmiy masaladir. U muammoning aniq sohasiga qaratilgan kichikroq ilmiy masalalarga tegishli ko'plab tadqiqot savollariga asoslanadi. Mavzu yoki savol yoritilayotganda aniq tadqiqot vazifasi ado etiladi, misol uchun, yangi material, konstruksiya, progressiv texnologiya ishlab chiqish va hokazo. Bu o'rinda ularning bajarilishi natijasi nafaqat nazariy, balki asosan muayyan iqtisodiy samara kutilayotgan amaliy ahamiyatga molik bo'ladi.

Muammo va mavzuni tanlash bir necha bosqichda hal etiladigan murakkab va mas'uliyatli vazifadir. Birinchi bosqichda, muammoli vaziyatdan kelib chiqqan holda, muammo izohlanadi va kutilayotgan natijaning umumiy yig'indisi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda muammoning dolzarbligi, uning fan va texnikadagi qimmatliligi belgilanadi. Uchinchi bosqichda muammoning tarkibi, ya'ni mavzular, kichik mavzular, masalalar va ular orasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Natijada muammo daraxti vujudga keladi. Shundan keyin, muammo asoslangach va tarkibiy ishlab chiqilgach, ilmiy xodim (yoki jamoa), odatda, mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot mavzusini belgilaydi.

Mavzuni tanlash ba'zan tadqiqot olib borishdan ham murakkabroq bo'ladi. Ilmiy-tadqiqot mavzusiga qator talablar qo'yiladi:

1. Mavzu ayni paytda yechimini talab qilayotgan darajada dolzarb bo'lishi kerak. Fundamental tadqiqotlar mavzularining dolzarbligini aniqlash borasida hozircha mutanosib o'lchovlar yo'q. Shu sababli ham bu o'rinda dolzarblikni yirik olim yoki ilmiy jamoa aniqlaydi. Amaliy ahamiyatiga kelganda, uning dolzarbligi odatda muayyan ishlab chiqarishning aniq sohasi ehtiyoji va iqtisodiy samarasidan kelib chiqib belgilanadi.

2. Mavzu yangi ilmiy masalani hal etishi va ilmiy yangiligi bilan ajralib turishi kerak.

3. Ilmiy mavzularga muhim talab sifatida iqtisodiy samaradorlik va uning ahamiyati qo'yiladi. Amaliy tadqiqotlar bilan bog'liq mavzular tanlash chog'ida

mo'ljallanadigan iqtisodiy samarani keltirish kerak. Fundamental harakterdagi mavzuni tanlashda esa, iqtisodiy samaradorlik talabi mavzuning ahamiyati talabiga o'rin bo'shatib beradi.

4. Mavzu ilmiy jamoa yo'nalishiga mos kelishi kerak. Bu ilmiy jamoa malakasini to'laroq ishlatish imkonini beradi. Natijada izlanishlarning nazariy darajasi, sifat va iqtisodiy samarasi oshadi, tadqiqotni bajarish muddatlari qisqaradi.

5. Mavzuning muhim talabi uning hayotga joriy etilishidir. Mavzu ishlab chiquvchilar uning belgilangan reja bo'yicha bajarilishini va buyurtmachining ishlab chiqarish sharoitlarida amaliyotga qo'llanishini aniqlashlari kerak. Ular muayyan ishlab chiqarishning shu vaqtdagi talabi va kelajagidan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim.

Mavzu tanlashda mazkur masalani hal qilishga bag'ishlangan xorij va o'zimizdagi adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqish lozim. Bu esa zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar an'alarini aniqlashga va qaytadan velosiped ixtiro qilib yurmaslikka yordam beradi.

Ilmiy-texnik axborotlar va ularni qidirish jarayonlari

Ilmiy bibliografiyasiz ilmiy ishni to'g'ri hal qilib bo'lmaydi.

Har qanday ilmiy tadqiqot, tadqiqot olib borishi mo'ljallanayotgan sohaga bag'ishlangan ilmiy-texnik adabiyotlarni izlashdan boshlanadi.

Turli hujjatlar ilmiy-texnik axborotlarni yetkazuvchi vosita bo'ladi:

- kitoblar (darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar va risolalar);
- davriy nashrlar (jurnallar, byulletenlar, institutlar nashrlari va ilmiy to'plamlar);
- normativ hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, yo'riqnomalar, normativ jadvallar, vaqtinchalik ko'rsatmalar va hokazo);
- kataloglar va baho ko'rsatkichlari;
- patent hujjatlari;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalash ishlari bo'yicha hisobotlar;
- axborot nashrlari (ilmiy-texnika institutlari to'plamlari, axborot varaqalari, ekspress-axborotlar, ko'rgazma prospektlari va hokazo.);
- xorijiy ilmiy-texnik adabiyotlar asl nusxasi va tarjimasi;
- dissertatsiyalar va avtoreferatlar;
- ilmiy-texnik konferensiyalar va ishlab chiqarish yig'inlari materiallari;
- ikkilamchi hujjatlar (bibliografik kataloglar, referativ sharhlar, referativ jurnal va hokazo.).

Sanab o'tilgan hujjatlar hajmi yildan yilga o'sib borayotgan ulkan axborot qatlamini hosil qiladi. Bu o'rinda ma'lumotlarning o'sib borayotgan va susayayotgan qatlami farqlanadi. O'sib borayotgan qatlam bajaruvchilar (ITI, OO'YU, TKB va hokazolar) tomonidan qayd qilinuvchi organlarga taqdim etiladi, susayayotgan qatlam esa bibliografik, sharh va referativ shaklda ularning buyurtmasiga ko'ra ijrochilarga taqdim etiladi.

XXI asrning insoniyat tarixida «Axborot asri» deb aytilishi bejiz emas, chunki o'tgan asr davomida kompyuter texnologiyalari jarayonida juda katta o'sish amalga oshirildi. Hisoblash texnikasidagi o'sish sur'atlari dasturlardagi tranzistorlar soni bilan o'zaro bog'liqdir. Dunyodagi eng mashhur korxonalar «Intel» asoschilaridan biri Gordon Mur mikrosxemalardagi har bir kvadrat dyuymdagi tranzistorlar sonining o'sish sur'atlarini o'rganib chiqib, ularning soni har ikki yilda ikki barobarga ortishini aytgan (bu Mur qonuni deb ataladi). 60-yillarda protsessorlar 30 ta tranzistorlardan tashkil topgan bo'lsa, hozirgi kunda protsessorlar bir necha million tranzistorlardan iborat va kelajakda bu son bir necha o'n millionlarga yetadi.

Bo'lardan tashqari, axborot saqlaydigan disklarning hajmi juda tez sur'atlarda qisqarib, ulardagi axborot sig'imi esa ortib bormoqda. Masalan, oxirgi 10 yil davomida disklarning hajmi 800 marotaba kamaygan, axborot sig'imi esa 24 ming marotaba ortgan.

Bunday o'sish sur'atlari dunyodagi axborot hajmining ham kengayib borishiga sabab bo'ldi. Yildan yilga ko'p insonlar kengroq hajmdagi axborotdan arzonroq narxlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Shunday qilib, 1998 yilda dunyo bo'yicha Internetdan foydalanuvchilar soni 20 million atrofida bo'lgan bo'lsa, 2002 yilda ularning soni 540 milliondan ortdi. Hozirgi kunga kelib bu raqam 1 mlrd. dan oshib ketdi.

1993 yilda Internet tarmog'ida 200 dan kamroq veb-saytlar bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni 100 milliondan oshdi.

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 8 million bo'lsa, ularning 7,6 millioni (92%) aynan yoshlar tashkil etadi.

Yurtimizda har 1000 kishidan 277 nafari internet xizmatidan foydalanadi. Buning ustiga telefon aloqa tizimi orqali 3,6 million, mobil telefon aloqa tizimi orqali 4,3 million kishining internetdan foydalanishini inobatga olish lozim bo'ladi.

MDH mamlakatlari milliy domenlari, ulardagi mavjud saytlar va foydalanuvchilar soni

№	Mamlakatlari	Domen nomi	Saytlar soni	Foydalanuvchilar soni	Domen ochilgan yil	Registratorlar soni		Nomlanish narxi
						2008 y	2012 y	
1	Armaniston	AM	19 266	1,3 mln	1994 y	7	13	25 \$
2	Belorussiya	BY	17 000	4.4 mln	1994 y	2	5	13 \$
3	Moldoviya	MD	20 457	1,4 mln	1994 y	1	1	39 \$
4	Ozarbayjon	AZ	13 659	3,6 mln	1993 y	2	14	25 \$
5	Rossiya	RU, RF	3 739 473 789 954	61,5 mln	1994 y, 2011 y	15	25	20 \$
6	Qirg'iziston	KG	4 922	2.1 mln	1995 y	1	1	40 \$
7	Qozog'iston	KZ	70 344	5.4 mln	1994 y	9	12	21 \$
8	Tojikiston	TJ	6 182	794 483	1997 y	9	9	10-20 \$

9	O'zbekiston	UZ	14 199	8,0 mln	1995 y	7	7	20 \$
10	Ukraina	UA	634 000	15,3 mln	1992 y	150	182	10 \$

Manba: - <http://www.internetworldstats.com> ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Har qanday ma'lumot «eskirish» xususiyatiga ega. Yangi ilmiy va ilmiy-texnik ma'lumotlar shiddat bilan o'sayotganligi sababli ayrim ma'lumotlar «eskiradi». Xorijiy tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, ma'lumotning qadr-qiymati pasayishi («eskirishi») gazetalar uchun kuniga 10 foizni tashkil etadi, jurnallar uchun oyiga 10 foiz. Kitoblar uchun esa yiliga 10 foiz. Shu sababli ham ma'lumotlarning ulkan oqimida muayyan mavzu uchun yangi, muhim ma'lumotni topish nafaqat bir ilmiy xodim, balki jamoa uchun ham qiyin¹.

Zarur ma'lumotni qidirish – ijodiy jarayon, shu sababli uni avtomatlashtirish maqsadga muvofiq. Axborot qidiruv – bu tanlangan mavzuga daxldor hujjatlarni qidirib topish bo'yicha operatsiyalar jamlanmasi. U qo'lda, mexanik, mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qo'lda qidirish oddiy bibliografik kartochkalar, kartotekalar va nashrlar ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. Mexanik qidiruvda perfokartalar axborot uzatuvchi vazifani bajaradi. Mexanizatsiyalashgan qidirishda hisob-perforatsiya mashinalari ishlatiladi, avtomatlashtirilgan qidiruvda esa, EHM. Axborot qidiruv tizimlarida axborot qidiruv tilining turli muqobillari ishlatiladi.

Qidiruv optimal natija berishi uchun mavzuning tadqiqotchisi bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi zarur. Sanoat, transport, fan va boshqa sohalarda zamonaviy universal ma'lumotlar manbasi sifatida Global axborot tarmoq – Internetni tilga olish mumkin. Bu tarmoq foydalanuvchiga turli axborot resurslariga kirish imkonini beradi va quyidagi savollarga javob topadi:

- Avtomatlashgan rejimda qanday qilib zarur axborot ob'ektini topish mumkin?

- Undan olisdagi mashina ma'lumotidan qanday foydalanish yoki o'z kompyuteriga qanday ko'chirish mumkin?

- Qanday dastur vositalari ko'magida ularni qabul qilish mumkin?

Bu o'rinda Internetdan foydalanuvchi tarmoqlararo aloqa ko'magida boshqa tarmoqdagi informatsion resurslardan foydalanishi ham mumkin.

Internet axborot resurslari – bu axborot texnologiyalar va ma'lumotlar bazasining butun jamlanmasi bo'lib, mazkur texnologiyalar yordamida o'rganiladi hamda muntazam ravishda yangilab turiladi.

Jamlanmaga quyidagilar kiradi:

- FTR fayl arxivlari tizimi;
- WWW ma'lumotlar bazasi;

¹ Peregudov L.V. Metodologiya nauchnogo tvorchestva: Uchebnik. T.: Moliya. 2002.

- Gopher ma'lumotlar bazasi;
- WAIS ma'lumotlar bazasi va boshqalar.

FTR fayl arxivlari tizimi keyingi 10-15 yil ichida yig'ilgan barcha ma'lumotlarning kengaytirilgan omboridir. Uning xizmatidan istagan mijoz foydalanib, o'ziga kerakli ma'lumotdan nusxa olishi mumkin.

Ko'plab axborot arxivlaridan qulay foydalanish tizimi sifatida World Wide Web gipertekst axborot tizimini (WWW-«Butun dunyo o'rgimchak to'ri») tilga olish mumkin. Mazkur texnologiyaning ko'plab interfeyslari manipulyatorning «sichqoncha» tugmachasini bosish orqali zarur so'z yoki grafik surat vositasida olinadi. WWWda Internetda yo'nalish olishga ko'maklashadigan katta miqdordagi kataloglar bor.

WWW ning boshqa axborot qidirish va uzatish vositalariga nisbatan afzalligi WWWning bir sahifasida bir vaqtning o'zida matnni va tasvirni ko'rish, tovushni eshitish va animatsiya, ya'ni harakatni tomosha qilish mumkin.

WWW – bu axborot bilan ishlashning eng qulay vositasi.

Gopher axborot taqsimlash tizimi asosida iyerarxik kataloglar g'oyasi yotadi. Bu tizim sodda va ishonchli, himoya qilingan tizim sifatida tan olingan.

WAIS axborot qidirish-taqsimlash tizimi asosida esa mantiqiy savollar, kalit vositasi sifatida qo'llaniladigan so'zlar vositasida zarur ma'lumotni qidirish tizimi yotadi. Foydalanuvchi o'z talabini qoniqtiruvchi hujjatlarni qidirish jarayonida WAIS ning serverlarini ko'rib chiqishi mumkin.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari nimalardan iborat?
3. Talaba mustaqil ishining ma'lumot-axborot ta'minotini tushuntiring.
4. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish va baholash nimalardan iborat?
5. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash me'zonlari kim tomonidan o'rnatiladi ?
6. Mustaqil ish bo'yicha belgalangan maksimal reyting balining 55 % dan kam ball to'plagan talabaning taqdiri nima bo'ladi?
7. Magistrarga ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
8. Ilmiy yo'nalish, muammo nimani anglatadi?
9. Mavzu deganda nimani tushunasiz va uni tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
10. Ilmiy-texnik axborotlarni yetkazuvchi vosita bo'lib nimalar xizmat qiladi?

BBB jadvali



BBB jadvalini to'ldiring

	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
	Talaba mustaqil ishining maqsadi			
	Talaba mustaqil ishining vazifalari			
	Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari			
	Ilmiy-tadqiqot mavzusi			

	Ilmiy-texnik axborotlarni yetkazuvchi vositalar			
--	---	--	--	--

9-Mavzu: TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING REYTING TIZIMI

Reja:

1. O‘qitish jarayonida talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash
2. Talabalar bilimni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini 100 ballik tizimda baholash mezonlari

1. O‘qitish jarayonida talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009yil 10 iyulda 1981- son bilan davlat ruyxatidan o‘tkazilgan. Topshiriqqa muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug‘i bilan Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1 son bilan davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazilgan. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi Nizomni amaliyotga joriy etish haqida” gi 333 – sonli buyrug‘iga asosan reyting tizimi bo‘yicha talabalar bilimni baholash mezonlari quyidagicha:

Nizomga binoan baholash har bir semestr uchun 100 ballik tizim asosida quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazoratga -30 ball.

Joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball.

Fandan saralash bali 55 ballni tashkil qiladi.:

Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a. talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b. talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta’minlash;

в. fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

г. talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

д. talabalar bilimni xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

е. talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

ж. o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimni semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi;

yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun «Yozma ish» yoki OTKS (ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

2. Talabalar bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichini 100 ballik tizimda baholash mezonlari

Joriy nazoratlarda baholashlar mezonlari

JN bir bosqichda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar doirasida JN og'zaki, test, nazorat ishi, uy vazifasi kabi shakllarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladi va bunga 35 ball ajratiladi (2 – jadval).

2 – jadval

Baho	Talabaning	Talabaning bilim darajasi
-------------	-------------------	----------------------------------

	to'plagan bali	
A'lo	30 – 35	Amaliy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa, ijodiy fikrlay olsa hamda xulosa va qaror qabul qila olsa.
Yaxshi	26 – 29	Amaliy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa.
qoniqarli	20 – 25	Amaliy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa.
qoniqarsiz	0 – 19	Amaliy mashg'ulot rejasini bajarmasa, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lmasa, aytib bera olmasa, yozma ravishda ifodalay olmasa, mohiyatini tushunmasa.

Oralik nazoratlarda baholashlar mezonlari

Ushbu fandan ON ham og'zaki, yozma ish, test, nazorat ishi, uy vazifasi kabi shakllarda ma'ro'za materiallari asosida amalga oshiriladi. Ushbu fandan talabaning ON orqali erishadigan maksimal ball 35 ni tashkil qiladi. Saralash bali bunda 20 ga teng.

ON bir bosqichda o'tkaziladi. (ON bo'yicha baholash mezonlari 4-jadvalda keltirilgan).

4-jadval

Baho	Talabaning to'plagan bali	Talabaning bilim darajasi
A'lo	30-35	Nazariy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa, ijodiy fikray ololsa hamda xulosa va qaror qabul qila olsa.
Yaxshi	26 – 29	Nazariy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa.
qoniqarli	20-25	Nazariy mashg'ulot rejasini to'liq bajarib, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa.
qoniqarsiz	0 – 19	Nazariy mashg'ulot rejasini bajarmasa, shu mashg'ulot bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lmasa, aytib bera olmasa, yozma ravishda ifodalay olmasasa, mohiyatini tushunmasa.

Yakuniy nazoratlarda baholashlar mezonlari

Ushbu fandan YAN og'zaki, test, yozma ish shaklida amalga oshiriladi. Har bir semestrda uning bitta shakli tanlab olinadi va qo'llaniladi.

Talaba joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning saralash bali 55 % dan ortiq ball to'plasa ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi (5-jadval).

Agar talaba yakuniy nazoratga shu nazorat turi bo'yicha saralash balidan yuqori ball to'plasa, bu ball joriy va oraliq nazoratlariga to'plagan ballariga qo'shiladi. Aks holda talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichi faqat joriy va oraliq nazoratlarning ballari yig'indisidan iborat bo'ladi.

Talabalarning yakuniy nazorati (YAN) dekanat tomonidan taqdim etilgan jadval asosida qabul qilinadi.

5-jadval

Baho	Talabaning to'plagan bali	Talabaning bilim darajasi
A'lo	28 – 30	Fan o'quv rejasini to'liq bajarib, shu fan mavzulari bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa, ijodiy fikray ololsa hamda xulosa va qaror qabul qila olsa.
Yaxshi	24-27	Fan o'quv rejasini to'liq bajarib, shu fan mavzulari bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa, amalda qo'llay olsa, mustaqil mushohada yurita olsa.
qoniqarli	17-23	Fan o'quv rejasini to'liq bajarib, shu fan mavzulari bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lsa, aytib bera olsa, yozma ravishda ifodalay olsa, mohiyatini tushunsa.
qoniqarsiz	0 – 16	Fan o'quv rejasini bajarmay, shu fan mavzulari bo'yicha tasavvo'rga ega bo'lmasa, aytib bera olmasa, yozma ravishda ifodalay olmasasa, mohiyatini tushunmasa.

Bitiruvchi talabalar bilimi faqat «ballar»da baholanadi ularga beriladigan Diplom ilovasiga yoki akademik ma'lumotnomada dekanat kotibalari fanlar bo'yicha talaba reytingini hisoblab qayd etishi zarur.

Kurs ishi, malakaviy amaliyot, Yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrning ilmiy faoliyati faqat ballarda ifodalanadi (reyting chiqarilmaydi). Magistrlik dissertatsiyasi himoyasi «Himoyadan o'tdi», «Himoyadan o'tmadi» tizimida baholanadi.

Fan buyicha saralash ballini to'play olmagan talaba fanni o'zlashtirmagan hisoblanadi va u dekan ro'xsati bilan qayta sinovdan o'tadi.

Qayta o'zlashtirish ko'rsatkichlari shu reyting qaydnomasining oxiridagi «Qo'shimcha o'tkazilgan YAB to'g'risidagi ma'lumot» qismida qayd etiladi.

Fakultet kotibasi dekan kursatmasiga asosan to'ldirilgan reyting qaydnomasini taalluqli o'qituvchilarga tarqatadi.

Dekanat o'rnatgan qayta topshirish muddati o'tgandan so'ng qaydnoma dekanatga o'qituvchi tomonidan qayta taqdim etiladi.

Reyting qaydnomasi harakati dekanatdagi maxsus jurnalda qayd etiladi.

Bundan tashqari dekanat kotibasi «Talaba o'quv varaqasi» ni to'ldirib boradi, unda talabaning semestrda fanlardan olgan balli va reytingi qayd etiladi.

Sinov daftarcha dekanatda saqlanadi. Yakuniy nazorat boshlanishdan oldin guruh sardori dekanatdan imzo ostida guruhning reyting daftarchasini oladi va yakuniy nazorat tugashi bilan ro'yxat bo'yicha yana dekanatga topshiradi.

Gurux jurnalini to'g'ri to'ldirib borishini nazorati fakultet dekani va uni muovuni zimmasiga yuklatilgan.

Professor-o'qituvchilar jurnalini to'g'ri to'ldirib borish nazorati kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilgan.

Tayanch iboralar: Reyting tizimi, baholash, joriy baholash ,oraliq nazorat, yakuniy nazorat, mustaqil ish, saralash balli, talabanning reyting balli, Reyting qaydnomasi.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. O'qitish jarayonida talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash qanday amalga oshiriladi?
2. Talabalar bilimini o'zlashtirish ko'rsatkichini 100 ballik tizimda baholash mezonlari nimalardan iborat ?
3. Fanlar bo'yicha ON, JN va YAN baholashdagi mezonlar qanday amalga oshiriladi?
4. ON, JN va YAN nazoratlarning farqi nimadan iborat ?

10. MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA TADQIQOT USULLARINI QO'LLASH

Reja:

1. Maxsus fanlarni o'qitishda tadqiqot usullarning ahamiyati
2. Iqtisodiy-matematik modellarni qo'llash
3. Maxsus fanlarni o'qitishda optimal yondashuv va asosiy statistik usullarning ahamiyati
4. Turistik firmalarda sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish usullari

1. Maxsus fanlarni o'qitishda tadqiqot usullarning ahamiyati

Iqtisodiy faktlarni umumlashtirishda tadqiqotchi mantiq va umumilmiy usullar bilan birgalikda tahlilning o'ziga xos usullaridan keng foydalanadi. Bunda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya qilinadi: taqqoslash, guruhlash, analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil hamda ekonometrik modellar, tanlab kuzatish, sotsiologik so'rov, SWOT-tahlil, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya kabi statistik va iqtisodiy tahlil.

Uzoq vaqt amaliyotchi va nazariyotchi iqtisodchilar o‘zlarining ishlarida oddiy matematikaning eng sodda usullaridan foydalanib kelishgan. Matematik-iqtisodiy tadqiqotlar quyidagi ma’lum sharoitlarda ishlatilishi mumkin.

- iqtisodiy nazariyaning to‘liq ishlab chiqilgan va mukammal bo‘lishi;
- matematik apparat va hisobning texnik vositalari mavjudligi;
- boshlang‘ich ma’lumotlarning tayyorligi;
- matematik va iqtisodiy bilimlarga ega bo‘lgan kadrlarning mavjudligi;
- zarur bo‘lgan ruhiy sharoit.

Iqtisodiy-matematik modellarni qo‘llash

Oddiy matematikaning hisoblash va o‘lchash maqsadlarida ishlatilishini hisobga olmasak, unda matematika iqtisodda iqtisodiy-matematik modellar (IMM) qurish uchun ishlatiladi deb aytish mumkin.

Iqtisodiy-matematik modellar bu matematik usullar yordamida xo‘jalik sub’ektlarining o‘zaro bog‘lanishlari va jarayonlarini yoritib berish demakdir. Ular optimal rejalashtirish, matritsa va iqtisodiy-statistika modellariga farqlanadilar. Matritsa modellari ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilish hamda material ishlab chiqarishning har xil darajalarida mahsulot taqsimlanishi (alohida korxonalaridan butun tarmoqqacha) uchun zarur. Optimal rejalashtirish modellari reja tuzish uchun zarur, bu reja minimal harajatlar bilan berilgan ishlab chiqarish natijasiga erishishni yoki mavjud resurslar hajmi bilan maksimal samaradorlikka erishishni ta’minlashda zarur. Iqtisodiy-statistik modellar iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini, aloqalarini, tafsivini ifodalaydi.

Model deb ob’ektiv jarayon yoki hodisaning eng muhim tomonlarini ko‘rsatib beruvchi real yoki tacavvur qilish konstruksiyasiga aytiladi. Model bu shunday ob’ektki, u o‘rganilayotgan ob’ektning o‘rnini bosa oladi va shu bilan uni o‘rganishni osonlashtiradi.

Modellar asosan ikki guruhga ajratiladi – moddiy (ishlab to‘rgan gidroqurilmaning maketi va boshqalar) va xayoliy. Iqtisodiy tadqiqotlarda asosan iqtisodiy-matematik modellar (IMM) deb ataluvchi xayoliy matematik modellardan foydalaniladi.

Iqtisodiy faoliyatning barcha sohasini qamrab oluvchi, uning tahlilini ta’minlovchi va ssenariy modelni tadqiqot qiladigan, shuningdek strategiyani qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan ssenariy variantini bashoratlash ko‘pgina mamlakatlarda makroiqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jamiyat turmushining har bir sohasi kelajakni anglab yetishda bashorat vositasiga tayanib ish ko‘radi. Xususan jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozlarini iqtisodiy siyosatni asosiy yo‘nalishini asoslab berish, qabul qilingan qarorlarni oqibatlarini ko‘ra olish shular jumlasidandir. Ijtimoiy-iqtisodiy bashoratlash jamiyat rivojlanishini strategiya va taktikasini shakllanishini hal qiluvchi ilmiy omillaridan biri hisoblanadi.

Maxsus fanlarni o‘qitishda optimal yondashuv va asosiy statistik usullarning ahamiyati

Iqtisodda optimal yondashuv. «Optimum» so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib «eng muvofiq, eng maqbul» degan ma‘noni anglatadi. Iqtisodiy optimum bu xo‘jalik aloqalarining mukammal ko‘rinishi, ob‘ektiv iqtisodiy qonunlarga muvofiq tarzda eng ma‘qul ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish uchun mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish saloxiyati, resurslar, real imkoniyatlarni maksimal samaradorlikda ishlatish demakdir.

Iqtisodiy rivojlanishning optimal yo‘li uni aniqlashda maqsadli funktsiya sifatida IMMga kiritiladigan optimallik mezonini tanlab olish juda muhim. Maqsadli funktsiya bu maqsad va unga erishishning matematik modeli, uning maqsadga erishish darajasini belgilaydi.

Iqtisodiy faktlarni statistika qo‘mitasi to‘playdi va qayta ishlaydi. Shuning uchun iqtisodiy tadqiqotning asosiy o‘ziga xos usullari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy usullar xizmat qiladi. Taqqoslash, guruhlash, umumlashtiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar, grafiklar va jadvallar asosiy usullar bo‘lib hisoblanadi.

Guruhlash bu turli ijtimoiy jamiyat hodisalarini, ob‘ektlarni xayolan bir turdagi guruhlarga ajratish jarayonidir. Barcha spesifik usullar ichida statistik guruhlash statistik iqtisodiy ma‘lumotlarni umumlashtirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Guruhlashning zarurligini iqtisodiy hodisalarning murakkabligi va bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi deb tushuntirsa bo‘ladi, bunday hodisalarni oldindan bir turdagi bo‘laklarga ajratmay tushunish qiyin.

Guruhlash analitik-sintetik jarayondir. Ko‘pchilik hodisalarga nisbatan u tahlil sifatida namoyon bo‘ladi, bunda har turdagi jarayonlar mayda bo‘laklarga ajratiladi. Shu bilan birga u o‘zining tarkibiga sintezni ham kiritadi, chunki uning yordamida bir turdagi bo‘laklar guruhlarga yig‘iladi.

Davlat statistikasi xo‘jaliklar bo‘yicha va ijtimoiy rivojlanish haqida statistik ma‘lumotlar beradi. Ma‘lumotlar ko‘p hollarda guruhlangan holda emas, balki jamlangan, saldolangan ko‘rinishda va eng asosiysi alohida natijaviy ko‘rsatkichlar asosida bosmadan chiqariladi. Mavjud bo‘lgan statistik ma‘lumotlardan samarali foydalanish uchun ularni har tomonlama guruhlash zarur.

Umumlashtiruvchi iqtisodiy ko‘rsatkich – iqtisodiy hodisalarning o‘ziga xos birligini harakterlovchi va oxir-oqibatda ularning miqdor tomonini aks ettiruvchi son. Bu ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar olinadi: YAIM (yalpi ichki mahsulot) hajmi, milliy daromad hajmi, ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati va hokazo.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zining funksiyalarini yaxshi bajarishi uchun to‘g‘ri, ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Ilmiy statistik ko‘rsatkichlarning ikki xil asosiy mezon mavjud. Birinchi mezon iqtisodiy ko‘rsatkichlarni chuqur nazariy, iqtisodiy tahlil asosida tashkil etilishini talab etadi, u asosan ko‘rsatkichlarning o‘ziga xosligi yuqori darajada bo‘lishi bilan bog‘liq. Ikkinchi mezon iqtisodiy ko‘rsatkichlarni to‘liq, isbotlangan, taqqoslanadigan va o‘z vaqtidagi

ma'lumotlardan tashkil topishini talab etadi. Bu mezon asosan ko'rsatkichlarning konkret miqdoriy tarkibi bilan bog'liq.

Umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar ikkita katta guruhga ajratilishi mumkin:

- ekstensiv yoki hajm ko'rsatkichlari;
- intensiv yoki munosabat ko'rsatkichlari.

Ekstensiv umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy hodisalarning massasini, hajmini harakterlaydi, ular statistik ma'lumotlarni yig'ish yoki hisoblashning natijasi sifatida yuzaga keladi. Ularga korxonalar soni, mahsulot hajmi, milliy daromad hajmi, ishchilar soni kiradi.

Ekstensiv statistik ko'rsatkichlar mutlaq kattalikdir, ular bilan iqtisodchi birinchi o'rinda ish olib boradi.

Intensiv iqtisodiy ko'rsatkichlar ikkita guruhga ajratilishi mumkin – o'rtacha va nisbat kattaliklari.

Iqtisodiy statistikada o'rtacha kattaliklar deb iqtisodiy hodisaning birgina miqdor belgisiga qarab, umumlashtiruvchi yoki tipik harakteristika berish tushuniladi.

O'rtacha birlik o'zining asosiy bilish funksiyasini bajarishi uchun u to'g'ri hisoblangan bo'lishi kerak. urtacha kattalikka qo'yiladigan asosiy talab bu bir turdagi, bir xil hodisalar bo'yicha hisob-kitobdir. O'rtacha kattaliklarning o'zini qoplay olish birliklarini butun davri yoki ularning tipik bo'limlari bo'yicha hisoblash kerak.

Nisbiy birlik deb statistikada ikkita boshlang'ich ko'rsatkich (asosan ekstensiv) nisbatining miqdor kattaligiga aytiladi, bunda o'rganilayotgan hodisalarning sifati namoyon bo'ladi.

Nisbiy birlik doimo ikkita kattalik munosabatini o'zida namoyon etadi. Ko'rinish shakliga qarab ko'pchiligi yoki kasr munosabatlar (baza sifatida birlik olingan koeffitsiyentlar) sifatida yoki foiz sifatida (baza 100 olinadi) namoyon bo'ladi. Tarkibiga qarab nisbat kattaliklarini bir qancha turlarga ajratish mumkin.

Iqtisodiy amaliyotda eng keng qo'llaniladigan nisbiy birlik dinamikasi hisobot davri darajasining o'tgan davr darajasiga nisbati bilan belgilanadi. Hisobot ma'lumotlarini taqqoslash uchun baza bo'lib xizmat qiladigan o'tgan davrlar aralash yoki uzoqlashgan bo'lishi mumkin.


Statistik ma'lumotlarni yozuv yo'li bilan statistik jadvalda va grafiklar yordamida berish mumkin.

Statistik jadval deb jamiyat hodisalari haqida ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashgan sonlar yordamida oqilona yoritib berishga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2010-2011 yillar mobaynida xizmat ko‘rsatish sohasidagi tuzilmaviy o‘zgarishlar

№	Xizmat turlari	2011 yil			2010 yil		
		mlrd.so‘m.	O‘sinh %	Tarkibi (%)	mlrd.so‘m.	O‘sinh %	Tarkibi (%)
	Xizmatlar, jami	41083,3	113,2	100,00	32749,8	115,1	100,00
	Jumladan:						
1.	Savdo xizmatlari	8607,5	118,6	20,95	6134,4	120,9	18,73
2.	Transport xizmatlari	12350,2	104,1	30,06	10547	113	32,20
3.	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2630	139,9	6,40	2062,5	128,7	6,30
4.	Moliya, bank xizmatlari	3507,5	118,6	8,54	2753,8	119,4	8,41
5.	Turistik-ekskursiya xizmatlari	64,1	127,3	0,16	44,7	115,3	0,14
6.	Mehmonxona xizmatlari	112,4	106,5	0,27	97,5	107,8	0,30
7.	Kommunal xizmatlar	4780,5	99,9	11,64	3852,1	99	11,76
8.	Maishiy xizmatlar	534,5	120,9	1,30	561,4	122,8	1,71
9.	Avtomobillarni ta‘mirlash xizmatlari	367,8	118,9	0,90	314,2	124,6	0,96
10.	Boshqalar	8128,9	118,5	19,79	6382,2	116,6	19,49

**Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YAIMning o‘sinh sur‘atlari
(oldingi yilga nisbatan foizda)**



O'zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalaridagi o'sish sur'atlari, foizda

Ko'rsatkich	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Sanoat ishlab chiqarish	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1



Statistik jadval yozuv manbalariga qaraganda ko'rgazmaliroq va tushunarliroqdir, unda ko'rsatkichlar ko'rgazmali, mantiqiy va ketma-ket shaklda joylashtiriladi. Bunda bilish samarasi jadvallar yordamida tezroq va kam joy egallanishi bilan amalga oshiriladi.

Yaxshi tuzilgan statistik jadval statistik-iqtisodiy ma'lumotlarni butunlay qamrab olish, ularni ko'rsatkichlarning bir butun tizimi sifatida ko'rish imkonini beradi. Jadvallar yordamida ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlar sezilarli darajada osonroq aniqlanadi va belgilab olinadi.

Statistik jadval tarkibini fikrning ma'lum tizimi sifatida tushuntirish mumkin. Shuning uchun statistik jadval bu sonlar bilan ifodalangan fikrdir. Ba'zida sonlar yordamida ishlaydigan statistik jadvallar bilan so'zlar yordamida ishlaydigan grammatik gaplar o'rtasida analogiya o'tkaziladi.

Statistik jadvalni o'ziga xos statistik gap deb tasavvur qilsak, unda ot va fe'lni ajratishimiz mumkin. Jadvalda ot bo'lib o'rganilayotgan ob'ekt (aksionerlik jamiyati, mas'uliyati chegaralangan jamiyat, tarmoqlar) joylashtiriladi, fe'l bo'lib esa statistik ko'rsatkichlar bilan ob'ekt karakteristikasi beriladi.

Ob'ektlarning harakteriga va joylashishiga qarab statistik jadvallar bir qancha turlarga bo'linadi (oddiy, guruh, kombinatsion, tipli va balans).

Jadvallarda qatorlar va grafalar nomlangan bo'lishi kerak. Ko'rsatkichlarning katta miqdori to'plansa, qator va grafalarni tartiblash va harflar bilan belgilash maqsadga muvofiq. Kerakli paytlarda bu lozim bo'lgan ko'rsatkichlarning olinish algoritmini ko'rsatish imkonini beradi.

Statistik grafiklar ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar haqida ma'lumotlarni geometrik shakllar, rasmlar yoki sxematik geografik haritalar va ularga tushuntiruv yozuvlari orqali umumlashtirish hamda tasvir etishning o'ziga xos yo'lidir. Geometrik shakllar sifatida nuqta, chiziq, figuralar ishlatiladi. Statistik grafik statistik jadval singari biron bir statistik ko'rsatkichni ifodalaydi va o'zining xususiyat vositalari yordamida konkret jamiyat hodisasi haqida tasavvur beradi. Bu borada hozirgi paytda kompyuter texnologiyasidan foydalanish katta imkoniyatlar beradi.

Turistik firmalarda sotsiologik so'rovnoma o'tkazish usullari

Turistik firma rahbarlari bilan amalga oshirilgan sotsiologik so'rovnomasi tahlili shuni ko'rsatdiki, yangi turistik firmalardan yarmiga yaqini (bir yildan kamroq ishlayotgan) kelajakda turistik biznesni, albatta, davom ettirar ekan. Lekin

bozorda 5 yildan ko'proq faoliyat ko'rsatayotgan turistik firmalar uchun bu ko'rsatkich 75 % ni tashkil etdi. O'rganilgan firmalardan faqat 7,2 % o'z biznesini tugatish niyatida ekanligini bildirdi. (Ilova 2)

Tadqiq qilgan 27 ta turistik firmalar o'z faoliyatini asosan operativ rejalashtirish asosida amalga oshirmoqda, natijada strategik boshqaruvni inkor etuvchi firmalar strategik va operativ boshqaruvni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishmoqda. Turistik firmalar ko'p vaqti va kuchini o'z tashqi muhitini o'rganishga sarflamoqda. Binobarin, "Turistik xizmatlar bozorida raqobatni belgilovchi kuchlarni ko'rsating" savoliga berilgan 32 foiz javoblarda real raqobatchilar mavjudligini ko'rsatildi. Shuningdek, javoblarning 29 foizi haridorlarning bozordagi ustunligini; 21 foizi ta'minotchilarning ustunligini; 12 foizi esa yangi raqobat-chilarning paydo bo'lish xavfini; 8 foizi boshqa turdagi o'rni bosuvchi xizmatlarning paydo bo'lish xavfini ko'rsatishdi.

Ko'rsatilgan holatlar ta'siri turizm sohasida raqobatning dinamik rivojlanishini va firmada mavjud raqobatbardoshlik omillarining eskirishini ifodalaydi. Tashqi muhitning doimiy tahlili firmalarda xavf-xatar va imkoniyatlarning paydo bo'lishini oldindan ko'ra bilish, kutilmagan holatlar yuzaga kelish vaziyatlariga qarshi rejalar ishlab chiqish, kutilajak xavfni foydali imkoniyatlarga aylantirishga urinish imkoniyatlarini yaratadi. Turistik firmalar rahbarlarining biz tomoni-mizdan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomasi ma'lumotlarining taxliliga ko'ra ular faoliyatining asosiy muammolari aniqlandi. (Ilova 3)

Turistik tashkilotlar faoliyatining asosiy muammosi sifatida javoblarning 66,8 foizi soliq siyosatining beqarorligini ko'rsatmoqda. Firmalar faoliyatidagi ushbu qiyinchiliklar huquqiy me'yorlarning nomukammalligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi, chunki chiquvchi turizm sohasida qo'shimcha qiymat solig'ini to'lash turlicha tushuniladi. Bunda turning to'liq narxidan soliq chiqarish kerakmi yoki turni amalga oshirish narxi va xorijlik shaxslarda unga kiruvchi xizmatlarni harid qilish narxi orasidagi farqdan hisoblash kerakmi? Soliq kodeksida bu xususiyatlarni belgilovchi izohlar yo'q. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining turistik firma va turist orasidagi shartnomani manfaatli xizmat ko'rsatish sifatida tavsiflovchi 703-modda orasidagi qarama-qarshiliklar olib tashlanmagan.

Sotsiologik so'rov natijalari bo'yicha turfirmalar faoliyatining asosiy muammolariga, shuningdek, turistik xizmatlar bozoridagi yuqori raqobatchilik – 60,8%, turizm sohasining rivojlanishida davlat tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi – 55,0%, o'zlarining xususiy moliyaviy mablag'larining yetishmasligi – 51,7%, iste'molchilar to'lov qobiliyatining yo'qligi – 49,0% kabi muammolarni ko'rsatishmoqda. Muammolarning muhimligi turli firmalar tomonidan turistik bozorda ishlashning turli muddatlari bo'yicha namoyon etiladi. Bir yildan kamroq faoliyat ko'rsatayotgan firmalar yuqori darajada raqobatni his etishmoqda. Besh yildan ko'proq faoliyat ko'rsatayotgan firmalar bu muammoni to'rtinchi o'ringa qo'yishdi, yosh firmalar davlat tomonidan beriladigan yordamga

kam darajada ishonishadi. Shakllanib bo'lgan firmalar ushbu muammolarni ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'ringa qo'yadi.

TURISTIK TASHKILOTLAR FAOLIYATINING ISTIQBOLINI BAHOLASHDAGI SOTSIOLOGIK SO‘ROVNOMA

Tashkilotning nomi: _____

1. Firmaning faoliyat ko‘rsatish davri: _____

- 1 yildan kam
- 2-5 yil
- 5 yildan ko‘p (tegishlisini belgilang)

2. Sizning tashkilotingiz kelajakda ham turistik biznes bilan shug‘ullanmoqchimi?

- Albatta, “Ha”
- “Ha” desa bo‘ladi
- “Yo‘q” desa bo‘ladi
- Albatta, “Yo‘q”
- Aytishga qiynalaman (tegishlisini belgilang)

TURISTIK TASHKILOTLAR FAOLIYATINING ISTIQBOLINI BAHOLASHDAGI SOTSIOLOGIK SO‘ROVNOMASINING NATIJALARI

«Sizning tashkilotingiz kelajakda ham turistik biznes bilan shug‘ullanmoqchimi?» savoliga javoblar (foizlarda)

Javoblar	Firmaning faoliyat ko‘rsatish davri bo‘yicha		
	1 yildan kam	2-5 yil	5 yildan ko‘p
Albatta, “Ha”	53,5	55,0	74,6
“Ha” desa bo‘ladi	33,6	30,6	17,6
“Yo‘q” desa bo‘ladi	1,5	2,5	0,2
Albatta, “Yo‘q”	1,5	1,5	-
Aytishga qiynalaman	9,9	10,8	7,6

TURISTIK TASHKILOTLAR FAOLIYATINING ISTIQBOLINI BAHOLASHDAGI SOTSIOLOGIK SO‘ROVNOMA

Tashkilotning nomi: _____

1. Firmaning faoliyat ko‘rsatish davri: _____

- 1 yildan kam
- 2-5 yil
- 5 yildan ko‘p (tegishlisini belgilang)

2. Sizing firmangizda qanday muammolar mavjud va nimalar xavf solmoqda?

- Soliq siyosatining beqarorligi;
- Turistik xizmatlar bozoridagi yuqori raqobatchilik;
- Davlat tomonidan turizmni rivojlantirishning yetarlicha qo‘llanmasligi;
- Xususiy pul vositalarining yetishmasligi;
- Iste‘molchilar to‘lov qobiliyatining yo‘qligi;
- Turistik faoliyatini nazorat qiluvchi huquqiy va me‘yoriy aktlar yetishmasligi;
- Turizm infrastrukturasi sohasining qoniqarsiz holati;
- Investitsiyalar defitsiti;
- Malakali kadrlar yetishmasligi;
- Yuqori tijoriy foizlar;
- Javob berishga qiynalishdi.

Turistik firmalar faoliyatidagi asosiy muammolarni aniqlashdagi sotsiologik so‘rovnoma natijalari

(muvofiq guruh bo‘yicha javob berganlar sonidan, foizlarda)

Muammo sifatida ko‘rsatilganlar	Barcha firmalar	Firmaning faoliyat ko‘rsatish davri bo‘yicha		
		1 yildan kam	2-5 yil	5 yildan ko‘p
Soliq siyosatining beqarorligi	66,8	58.5	67.7	70.9
Turistik xizmatlar bozoridagi yuqori darajadagi raqobat	60.8	61.1	63.5	54.9
Turizm rivojining davlat tomonidan yetarli qo‘llab-quvvatlanmasligi	55.0	46.5	53.5	64.8
Xususiy pul mablag‘larining yetishmasligi	51.7	51.8	51.1	53.0
Iste‘molchining to‘lovga	49.0	49.8	48.8	56.3

layoqatsizligi				
Turistik faoliyatni nazorat qiluvchi huquqiy va me'yoriy aktlar yetishmasligi	41.6	38.9	41.5	44.1
Turizm infrastrukturasini sohasining qoniqarsiz holati	35.0	31.3	33.3	41.7
Investitsiyalar defitsiti	20.0	20.8	19.1	21.8
Malakali kadrlar yetishmasligi	14.0	18.7	13.1	12.6
Yuqori tijoriy foizlar	9.0	10.2	9.7	6.5
Javob berishga qiynalishdi	2.6	4.4	2.5	1.7

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda tadqiqot usullarning ahamiyati nimadan iborat?
2. Iqtisodiy-matematik modellar (IMM) nimani anglatadi?
3. Qanday sharoitda IMM ni qo'llash maqsadga muvofiq?
4. Maxsus fanlarni o'qitishda optimal yondashuvni qo'llashning ahamiyati.
5. Statistika usullarning asoslari nimadan iborat?
Qanday sharoitda statistik jadvallar va grafiklar qo'llaniladi?